



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
FILOLOGIYA FAKULTETI**

Nemis va Fransuz tillari kafedrasи

G'AYBULLAYEVA KAMOLANING

5120100-Filologiya (Nemis tili) ta'lif yo'naliishi bo'yicha bakalavr darajasini

olish uchun

**“Chet til o'qitish metodikasining kategoriyalari (nemis tili ta'lif bosqichlarida
qo'llanishi)”**

Mavzuidagi

**BITIRUV
MALAKAVIY ISHI**

Ilmiy rahbar:

dotsent: Saydaliyev S.

Taqrizchilar:

professor: Nurmatov O'.

katta o'qituvchi: Jo'raboyev B.

Namangan 2016 – yil

MUNDARIJA

Chet til o'qitish metodikasi kategoriyalari (nemis tili ta'lim bosqichlarida o'qitilishi misolida)

KIRISH.....3.

I BOB. CHET TIL O'QITISH METODIKASINING NAZARIY ASOSLARI

I. 1. Chet til o'qitish metodikasining asosiy tushunchalari.....8.

I. 2. Chet til o'qitish metodikasining asoslanadigan prinsiplari15

I. 3. Chet til o'qitish metodikasining umumdidaktik prinsiplari.....23

Birinchi bob bo'yicha xulosalar.....30

II BOB. METOD CHET TIL O'QITISH METODIKASINIG ASOSIY MANBAASI SIFATIDA

II.1. Chet til o'qitishning tarixiy metodlari.....32

II.2. Chet til o'qitishning jarayon metodlari.....47

II.3. Chet til o'qitishning usullari.....51

Ikkinchi bob bo'yicha xulosalar57

III BOB. NEMIS TILI O'RGATISH JARAYONIDA METODIKANING ASOSIY TUSHUNCHALARINING AMAL QILISHI

III. 1. Nemis tili o'rgatish jarayonida tarixiy metodlaridan foydalanish.....58

III. 2. Nemis tili o'rgatish jarayonida jarayon metodlaridan foydalaish.....66

III. 3. Nemis tili o'rgatish jarayonida strategiya va usullar.....68

Uchinchi bob bo'yicha xulosalar.....70

UMUMIY XULOSALAR.....71

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

KIRISH

Mamlakatimiz mustaqilligi sharofati bilan respublikamizda chet tillarni o'rganishga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2012-yil 10-dekabrdagi „Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 1875-sonli qarori mamlakatimiz ta'lim tizimi oldiga bu boradagi ishlarni tubdan isloh qilish vazifasini qo'ydi.

Qarorda aytilganidek , chet tillarni o'rganishni tashkil qilishning amaldagi tizimini tahlil etish shuni ko'rsatmoqdaki, ta'lim standartlari, o'quv dasturlari va darsliklar zamon talablariga, xususan, ilg'or axborot va media-texnologiyalardan foydalanish borasidagi talabga to'liq javob bermayapti. Ta'lim asosan an'anaviy uslublarda olib borilmoqda. Ta'lim tizimining barcha bosqichlarida chet tillarni uzlusiz o'rganishni tashkil qilish, shuningdek, o'qituvchilar malakasini oshirish hamda zamonaviy o'quv-uslubiy materiallar bilan ta'minlash yanada takomillashtirilishini taqozo etadi.

Kadrlar tayyorlashning zamonaviy talablari va davlat ta'lim standartlarida yangi tipdag'i o'quv yurtlarida hamda tayanch muassasalarida xorijiy til ta'limi tizimi oldiga juda yuksak ma'suliyat bilan yondashishi zarur va shart etib qo'yilmoqda. Zero, xorijiy tillardan hech bo'limganda ikkitasini egallamay turib, mustaqil mamlakatimiz uchun kerakli mutaxassis bo'lib yetishish mumkin emasligi ochiq-ravshan ayon bo'lib qoldi.

Shu ma'noda xorijiy (chet) tilni amaliy maqsadlar uchun o'rganish va o'rgatishdan kuzatilayotgan maqsadlar turlicha talqin etilsada, bular ichida bo'lajak mutaxassislarni muloqotga tayyorlash, ya'ni chet til ta'limi va tahsilidan ko'zlanayotgan maqsad kommunikativ xususiyatda ekani oydinlashadi.

Chet til ta'limidan kuzatilgan maqsadlar mazkur xususiyatga ega ekani birinchi o'rinda, shubhasiz chet tilda aloqa qilish amaliyotini qo'yadi-ki, bu amaliyot tildan amalda foydalanish mashqlarisiz mumkin emas. Bu amaliyot o'z-o'zidan ayonki

nutqiy, ya'ni muloqot yo'sinidagi xodisadir. Shu boisdan chet til ta'limi va taxsilining tashkil etilishi va lingvopsixologik va lingvometodik xususiyatlarini hisobga olingani bilan samaradorlikka daxldor bo'ladi.

Shu o'rinda shuni ta'kidlash lozimki, bugungi kunda chet tilni o'rganish davr talabiga aylanib ulgurgan. Qaysi bir o'quvchi yoki talabani olmaylik, o'zi o'zlashtirayotgan ta'lim sohasidan farqli ravishda, qo'shimcha tarzdagi biror bir chet tilga mehr qo'yib, uni imkonи boricha yuqori darajada o'zlashtirishga intilmoqda. Yuqorida ta'kidlaganimizdek til o'rganuvchilar iloji boricha o'rganayotgan tillarini mukammalroq egallahsga intiladilar. Til o'rganuvchilar iloji boricha o'rganayotgan tillarini mukammalroq egallahsga intiladilar. Shu ma'noda chet til o'qitish metodikasining kategoriyalari va ular haqidagi ilmiy-nazariy fikrlarni oydinlashtirish va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mavzuning ishlanganlik darajasi

Ushbu mavzu bo'yicha bir qator tadqiqotchilar ilmiy fikr bildirganlar. Ularga L.V.Sherba, I.V.Raxmanov, B.V.Belyayev, B.A.Artyomov, I.A.Zimnyaya, J.Jalolov, S.Saydaliyev va boshqalar. Lekin ushbu mavzuni o'rganishga maxsus tadqiqot bag'ishlanmagan. Shuning uchun mavzuda maxsus tadqiqot olib borishga asos bo'ladi.

Chet til o'qitish metodikasi, prof. Mixail Vasilyevich Lyaxovitskiy ta'riflashicha, ta'limning maqsadlari, mazmuni, vositalari, shuningdek, chet til yordamida ta'lim tarbiya berish berish usullarini tadqiq etuvchi fandir. Har bir fanda o'z tushunchalar yig'indisi mavjud. Chet til o'qitish metodikasida qabul qilingan asosiy tushunchalar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin: ta'lim sistemasi, ta'lim metodi, ta'lim prinsipi, ta'lim vositasi, metodik usul.

Metodika ilmini rivojlantirish va uni yuksak pog'onalarga ko'tarishda L.V sherbaning shogirtlari va izdoshlari (I.V. Raxmanov, V.S. Setlin, A.A.Mirolyubov, o'zbek olimlari va boshqalar) ning hissasi ulkandir.

Prof. Yefim Izrailevich Passov fikricha, metod o'quv jarayonida qo'yilgan maqsad sari yo'naltirilgan va nutq faoliyati turlari bilan bog'liq prinsiplar sitemasidir. Demak,

prinsiplar metodni shakllantiradi. Bu yerda keng ma'nodagi metodik yo'nalish haqida so'z boryapti. (Passov, 1991)

Prof. Y.I.Passov ta'biricha "prinsip-o'qitish jarayoni atalmish binoning poydevoridir". Tabiatda prinsiplar yo'qligi, faqat qonunlar borligi haqida bilish nazariyasida ma'lumotlar keltiriladi. Prinsip "asos bo'ladigan yo'l- yo'riq, qonun- qoida" ma'nosida ishlatiladi. Ta'limshunoslikda xilma-xil prinsiplar tizmasi bayon etiladi.

Prinsip tushunchasi bevosita o'quv jarayonini aks ettiruvchi metodik hodisani ifodalaydi, metod esa prinsiplar yig'indisining mavhumlashgan umumlashmasidir. Mas. og'zaki nutqning ilgarilashi prinsipi, til tajribasini hisobga olish prinsipi kabilar. Prinsip uch guruhni tashkil etadi: pisixologik, didaktik va sof metodik prinsiplar.

Metodik usul yanada kichik tushuncha bo'lib, "yangi so'zning ma'nosini ochish usullari", "til materialini o'rgatish usullari" singari birikmalar uchraydi.

Zamonaviy metodik qo'llanmalarda ushbu fanning o'rganish predmeti qilib chet tli vositasida o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berish belgilanadi. Chet tillarni turli o'quv yurtlarida yoki muayyan tilni (mas. mактабда nemis tilini) o'rgatish metodika nazariyasida farqlab qo'yilgan. (Jalolov, 2011).

Ta'lim vositasi termini metodikada ikki ma'noda ifodalaydi. Birinchi ma'nosи "ta'limning moddiy vositasi" (darslik o'qituvchi kitobi, texnika vositalari kabilar)ni bildiradi. Ikkinci ma'nosи esa nutq faoliyati turiga taaluqlidir (mas. yozuv chet til o'rgatish vositasidir).

Biz yuqorida nomlari zikr etilgan va boshqa olimlarning tadqiqotlari bilan tanishgan va ularning xulosalariga asoslangan holda chet til o'qitish metodikasining kategoriyalari haqida nazariy ma'lumot to'pladik.

Maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni rejalahtirildi:

- Chet til o'qitish metodikasi, tilkshunoslik, psixologiya va pedagogikaga oid adabiyotlarni tanqidiy o'r ganib chiqish, konspekt qilish va ular bo'yicha tanlangan mavzu masalalariga oid xulosalar chiqarish;

- Sohaning taniqli, tajribali mutaxasislari bilan masa bo`yo`yicha suhbatlashish va maslahat olish;
- Mavzuni yoritishga oid reja tuzish, reja aosida fikrlarni yozma bayon qilish va ularni ilmiy rahbar bilan birgalikda muhokama qilish.
- BMI ni bajarilish talablariga oid barcha xujjatlar va qog`ozlarni tayyorlash.
- BMIni DAK hay`ati huzurida himoya qilish va barcha xujjatlar bilan Ziyonetga topshirish.

BMIning obyekti: Chet til o'qitish metodikasining kategoriyalari va asosiy tushunchalarining nazariy asoslanish jarayoni

BMIning predmeti: Chet til o'qitish metodikasining kategoriyalarini nemis til o'qitish jarayonidagi tadbiqi.

BMIni bajarish jarayonida quyidagi tadqiqot metodlaridan foydalanildi:

- Mavzuga oid adabiyotlarni o`rganib chiqish;
- Ilg`or pedagog va olimlarning tajribalarini o`rganish;
- Tajribali olimlar bilan suhbatlashish va maslahat olish.

BMI materiallaridan chet til o`qitish metodikasi fanidan ma`ruza, seminar mashg`ulotlariga tayyorgarlik ko`rishda, shu mavzuga oid maqolalar yozishda, darsni rejalashrirish va o`quv qo`llanmalari tayyorlashda foydalanish mumkin. BMI Kirish. uch bob, to`qqizta paragrap, har bob bo`yicha xulosalar va adabiyotlar ro`yxatidan iborat. Uning umumiy hajmi 60 sahifa.

Birinchi bobda Chet til o'qitish metodikasini asosiy tushunchalari, chet til o'qitishining asoslanadigan prinsiplari, chet til o'qitish metodikasining umumdidaktik prinsiplari bo`yicha ma'lumotlar mufassal bayon qilingan.

Ikkinci bobda Chet til o'qitishning tarixiy metodlari, chet til o'qitishning jarayon metodlari, chet til o'qitishning usullari mavzulariga bag'ishlanib shu mavzuga oid masalalar ko'rib chiqilgan.

Uchinchi bobda Nemis tili o'rgatish jarayonida tarixiy metodlaridan foydalanish, nemis tili o'rgatish jarayonida jarayon metodlaridan foydalaish, nemis tili o'rgatish jarayonida strategiya va usullari o'rganib chiqilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida 40 nomdagi adabiyotlar ko'rsatilgan.

I. BOB CHET TIL O'QITISH METODIKASINING NAZARIY ASOSLARI

I.1. Chet til o'qitish metodikasini asosiy tushunchalari

Metodika - Chet til o'qitish nazariyasi

Chet o'qitish metodiikasining predmeti. Chet til muallimligi kasb-u kor sifatida tanlaganlar zimmasiga ushbu tilni o'qitish nazariyasidan mukammal xabardor bo'lishdek vazifa yuklanadi. O'qitish ilmini metodika fani yoritadi , "metodika" so'zi yunoncha so'z bo'lib,"biror ishni maqsadga muofiq bajarish usullari majmuyi" ma'nosini bildiradi.

Pedagogik muloqotda tez-tez uchrab turadigan "metodika" terminining uchta ma'nosi bor . Birinchisi , o'quv predmetini bildiradi (mas. "ertaga birinchi dars - metodika"), ikkinchisi, ta'limning metodik usullar yig'ndisini (mas. "o'qtuvchimizning metodikai menga yoqadi") va uchinchisi, ta'lim nazariyasi va maxsus fan (mas "bu qo'llanmada metodika yaxshi yoritilibdi") ni ifodalaydi. Bu bobda "metodika"so'zining uchinchi terminologik ma'nosi haqida fikr yuritiladi.

Chet til o'qitish metodikasi, prof. Mixail Vasilyevich Lyaxovitskiy ta'riflashicha, ta'limning maqsadlari, mazmuni, vositalari, shuningdek, chet til yordamida ta'lim tarbiya berish berish usullarini tadqiq etuvchi fandir. Metodika fani, asosan, quyudagi uch yirik mavzuni o'rgatadi: chet til o'rgatishning nazariy muammolari, nutq faoliyatini turlarini o'rgatish va chet til o'gatishning tashkiliy masalalari. (Lyaxovitskiy,1975)

Boshqacha qilib aytganda , metodika chet til o'gatish ilmi bo'lib , "chet til" ni o'quv predmeti sifatida belgilaydi, muallim va o'qituvchi faoliyatini o'rganadi va boshqa fanlar yutuqlarini o'zlashtirish va o'z qonuniyatlarini ishlab chiqish yo'llarini tadqiq etadi.

Sobiq ittifoq chet til o'qitish metodikasi faniga atoqli tilshunos olim , akademik Lev Vladimirovich Sherba asos solgan. Metodika ilmini rivojlantirish va uni yuksak

pog'onalarga ko'tarishda L.V sherbaning shogirtlari va izdoshlari (I.V. Raxmanov, V.S. Setlin, A.A.Mirolyubov,o'zbek olimlari va boshqalar) ning hissasi ulkandir.

Zamonaviy metodik qo'llanmalarda ushbu fanning o'rganish predmeti qilib chet tli vositasida o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berish belgilanadi. Chet tillarni turli o'quv yurtlarida yoki muayyan tilni (mas. maktabda nemis tilini) o'rgatish metodika nazariyasida farqlab qo'yilgan. (Jalolov, 2011).

Metodikada asosiy tushunchalar. Har bir fanda o'z tushunchalar yig'indisi mavjud. Chet til o'qitish metodikasida qabul qilingan asosiy tushunchalar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin: ta'lim sistemasi, ta'lim metodi, ta'lim prinsipi, ta'lim vositasi, metodik usul.

Pedagogika voqeligi hodisalarini sistemali-strukturali yo'nalishda o'rganishi munosabati bilan "talim sistemasi" termini keng tarqaldi. Ushbu metodik kategoriya ma'nosiga muvofiq ta'lim jarayoni sistema deb qaralmoqda. Muayyan zamon va makon doirasida amalga oshiriladigan chet til o'quv jarayoni ochiq (aniq chegara qo'yilmagan) sistema hisoblanadi va nashr etilgan chet til "o'quv metodik kompleksi"da o'zifodasini topadi. Ta'lim sistemasida ko'zlanadigan maqsad, shakllanadigan mazmun va qo'llanadigan metod singari kategoriyalardan iborat (ularning har biri alohida boblarda yoritiladi).

Chet til o'qitish metodi deyilganda chet til o'rgatishning amaliy, umumta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlariga erishuvchi ta'minlovchi muallim va o'qituvch faoliyatining majmuyi tushuniladi.

Metod termini "ta'lim usullari yig'indisi" va "ta'limning yo'nalishi" ma'nolarida qo'llanadi. Birinchi ta'lim nazariyasida ishlatilsa (mas. og'zaki nutq o'rgatish metodlari, talaffuz o'rgatish metodlari), ikkinchi ma'noda uni o'qitish metodikasi tarixiga oid asoslarda uchratamiz. Mas. chet til o'qitishning tarjima metodi, to'g'ri metod, ongli qiyosiy metod, audiovizual metod va h.k.

Prof. Yefim Izrailevich Passov fikricha, metod o'quv jarayonida qo'yilgan maqsad sari yo'naltirilgan va nutq faoliyati turlari bilan bog'liq prinsiplar sitemasıdır. Demak,

prinsiplar metodni shakllantiradi. Bu yerda keng ma'nodagi metodik yo'nalish haqida so'z boryapti. (Passov, 1991)

O'quvchilarni tarbiyalash va ta'lif berishda asos bo'ladigan metodik qonun qoida termini bilan yuritiladi.

Ta'lif vositasi termini metodikada ikki ma'noda ifodalaydi. Birinchi ma'nosi "ta'lifning moddiy vositasi" (darslik o'qituvchi kitobi, texnika vositalari kabilalar)ni bildiradi. Ikkinci ma'nosi esa nutq faoliyati turiga taaluqlidir (mas. yozuv chet til o'rgatish vositasidir).

Metodik usul yanada kichik tushuncha bo'lib, "yangi so'zning ma'nosini ochish usullari", "til materialini o'rgatish usullari" singari birikmalar uchraydi

Umumiy va xususiy metodika. fanlarda umumiy va xususiy chegaralanish kuzatiladi mas. umumiy tilshunoslik va xususiy tilshunoslik, umumiy pisixologiya va xususiy psixologiya. Chet til o'quv predmetini o'rgatish nazariy masalalari muhokama etilganda, umumiy metodika tushuniladi. Til materialini tanlash, taqsimlash, tasnif va bayon etish muammolari umumiy metodikaning vazifasiga kiradi.

U yoki bu chet tilni aniq pedagogik sharoitda o'qitishga doir ilmiy ma'lumotlar xususiy metodikadan izlanadi. Mas. o'zbek maktablarida xitoy tili o'qitish metodikasi yoki rus maktablarida arab tili o'qitish metodikasi.

Umumiy va xususiy metodikaning tarixi, nazariy va amaliy muammolariga tegishli fikr-mulohazalar metodika nazariyasi kursini tashkil etadi.

Xalqaro miqyosda yaqingacha tatqiq etilmagan "Chet til o'qitishning qiyosiy metodikasi" o'zbek olimlari tomonidan ishlab chiqildi. Unda turli muammolar ko'tarib chiqildi. Ushbu kitobda pedagogika fanlari tarkibidan o'rinni olgan chet til o'qitishning umumiy metodikasi masalalari bayon etildi.

Metodika fanining ilmiy tadqiqot metodlari. Moddiy dunyo sir asrorini bilish va ijtimoiy qonuniyatlarni ochish yo'lida turli fanlar yaratilgan. Hozirgi paytda fanshunoslardan ikki ming atrofida fan mavjudligini e'tirof etishadi. Ilmiy tadqiqot

metodlari bo'limgan biron ta fan yo'q. Ularning har qaysisi, jumladan, pedagogika va o'z navbatida, chet til o'qitish metodikasi ham, fan sifatida o'zining ilmiy tadqiqot metodlari bilan ish ko'radi. O'qituvchining ijodiy ishlashida nafaqat fan yutuqlari va ilg'or ish tajribalaridan samarali foydalanish, shuningdek, o'quv jarayonida mustaqil ilmiy izlanishi ham zaruriy shartlardan biridir. Mustaqil tadqiqot amaldagi ilmiy tekshirish metodlari yodamida o'tkazilishi mumkin.

Ilmiy tadqiqot metodlari ikkiga bo'linadi-nazariy metodlar va tajribaga asoslanadigan metodlar. Tadqiqotning nazariy metodlariga analiz/ sintez, ilmiy faraz (gipoteza)lar qurish, modellashtirish tegishlidir. Amaliy (tajriba) metodlar orasida tajriba sinov (eksprement), tajriba o'tkazish, maqsadli kuzatish kabilar ma'lum va ma'quldir. bular umumiyl yoki asosiy metodlar hisoblanadi. Ilmiy tekshirish metodlaridan yordamchilari yoki xususiyatlari quyidagilardir: anketa (so'rov)lar o'tkazish, test bajarish, xronometraj qilish, suhbat kabilar.

Ushbu metodlarning alohida-alohida yoki birgalikda qo'llanishi tadqiqot turiga bo'liq. Hozirgi zamondans fanshunosligida ilmiy tadqiqotlar uch guruhga bo'linadi:

1. Fundamental ilmiy tekshirishda fanning sof nazariyasi hal etiladi.
2. Amaliy tadqiqotda nazariyaning aniq elementlari ishlab chiqiladi.
3. Ishlab chiqish uchun zaruriy materiallar tuzish/tayyorlashga doir tadqiqotda darslik, qo'llanma, audiovizual vositalar yaratish bilan shug'ullanadi.

Fanshunoslikda ta'kidlanishicha, tadqiqotning obyekti va predmeti bo'ladi. Mas. o'rta maktabning biror bir sinfiga ispan tili o'qitish-tekshirish obyekti bo'lib, agar ushbu sinf o'quvchilariga o'qilish qoidasini yoki yangi so'zni o'rgatish tadqiq etilsa, u holda biz tekshirishning predmetiga duch kelamiz. Ko'rinish turibdiki, tadqiqot predmeti tadqiqot obyektining bir qismi yoki sohasidir.

Asosiy (nazariy) metodlardan analiz -sintez medodiga adabiy manbalar (Chet til o'qitishni retrospektiv (tarixan) o'rganish)ni misol qilib ko'rsatish mumkin.

Tahlil metodi oldiga doimo tanqidiy yondashish, o'tgan davrdagi ijobiy va salbiy tomonlarni aniqlash maqsad qilib qo'yiladi. Erishilgan ijobiy natija hozirgi kundagi o'qitish tajribasiga tadbiq etiladi.

Tadqiqot jarayonida zamonaviy kibernetika metodlaridan, chunonchi, programmalashtirish, kompyuterlashtirishga katta o'rinn berilmoqda. Kibernetik analiz tilni o'gatish jarayonini boshqarish hamda tilni egallash darajasining xolisona ko'rsatkichlarini topishga yordam beradi.

Chet til o'qitishdagi ilg'or tajribalarni o'rganish, umumlashtirish va yoyishdan ko'zlanadigan maqsad ham ijobiy natijalarni qo'lga kiritishga qaratiladi. Ilg'or ish tajribasi umumiylar tarzda (chet til o'qitish tajribasi) yoki ayrim kichik soha (mas.dars boshlanishida til muhitini yaratish, murakkab grammatik hodisani amaliy o'rgatish kabi)larni analiz-sintez metodi yordamida tadqiq qilishdan iborat.

Asosiy (umumiylar) tadqiqot metodlaridan ilmiy kuzatish pedagogik jarayonda ommaviytus olgan bolib, metodik tadqiqotda xulosalar chiqarish, foydali axborot to'plash, kuzatilgan hodisalarga oid yig'ilgan faktlarni tasniflash imkonini tug'diradi. Kuzatish har doim ma'lum maqsadga bo'sundirilishi zarur. Oddiy kuzatish oqibatlari nazorat ishlar, protakol materiali, test natijasi bilan to'ldirilishi mumkin. Chet til o'rgatishni tadqiq etishda ta'limiy tajriba o'tkazish va tajriba sinov metodlari ko'pchilikning e'tiborini o'ziga tortgan.

Tajriba o'tkazish ommaviy ta'lim jarayonini tekshirish metodidir. Boshqa metodlardan tajriba o'tkazishning farqi shundan iboratki, juda ko'p maktablarda uzoq muddat davomida o'tkaziladigan tajriba o'zining o'ta ishonarli ma'lumotlari tufayli o'quv jarayonining modeli yanglig' namoyon bo'ladi.

Ilmiy tadqiqotning umumiylar (asosiy) metodlari ichida salmoqli o'rinn tutadigani tajriba-sinovdir. Tadqiqot metodikasi sohasida barakali ilmiy natjalarga erishgan prof. M.V Lyaxovitskiy tajriba -sinov haqida shunday fikr yuritgan: tekshirilayotgan metodik hodisa turli ko'rinishlarda ilmiy asoslanib, tajribaga qo'yilganda, tajriba-sinov hosil bo'ladi. Mas. leksik birliklar sinov guruhlarda tarjimasiz, nazorat sinflarda tarjima qilib

o'rgatiladi. Ko'rinib turibdiki, leksik material bitta, o'rganish metodikasi ikkita. Tajriba sinov natijasi tarjimaning yaroqli yoki yaroqsizligini isbotlab beradi.

An'anaviy metodik kategoriyalarni tajriba-sinovdan o'tkazishda albatta yangicha yondashiladi, ya'ni boshqich ko'rinishlarda tekshiruv o'kaziladi.

Tajriba -sinov to'rt bosqichli metoddir. Birinchi bosqichda tajriba-sinov tashkil etiladi, shu maqsadda ilmiy faraz (gipoteza) olg'a suriladi. Ikkinci bosqichda- rejallashtirilgan tartibda tajriba-sinov amalga oshiriladi. Uchinchi bosqichda-tadqiqot natijasining miqdori va sifati aniqlanadi. To'rtinchi bosqichda- olingan ma'lumotlar isbotlab beriladi, ilmiy tahlil qilinadi. Ilmiy faraz (taxmin) qilingan metodik muammo, bir tomonidan, yangilik hisoblanishi, boshqa tomonidan, munozarali bo'lishi, binobarin, tajribadan o'tishga muxtoj ekanligi tajriba-sinov metodining o'ziga xos xususiyatidir. Tajriba-sinov ilmiy farazning amalda sinab ko'rish vositasidir.

Tajriba-sinovning nazariyasini eksperimentator (tajriba olib boruvchi) yaratadi, ijrochi rolida muallim, tekshiruvchilarни o'quvchilar tashkil etadi, tajriba -sinov materiali sanalmish metodika hodisasi-obyekt va predmet deb ataladi.

Tajriba-sinov o'zining belgilari e'tibori bilan uch toifaga bo'linadi: tadqiqotda tutgan o'rniga ko'ra yordamchi va asosiy tajriba-sinov, tajriba -sinovning o'tishi nuqtai nazaridan tabiiy va labaratoriya tajriba sinovi va tajriba-sinov tashkil etilishiga qarab, bir martalik va takroriy tajriba-sinov.

O'zbek maktablarida chet til o'qish metodikasini yaratishga atalgan qator tadqiqodlarda tajriba-sinov qilish namunasini eslab o'tish o'rinnlidir. Iqtidorli metodist olim Hoshimjon Soynazarov ilmiy ishlarida ingliz tili leksik birliklarini retseptiv planda (idrok etib tushunishda) til tajribasining ko'chish me'yori eksperimental va nazariy asoslab berilgan. (H. Soynazarov, 2010)

Yetuk metodist prof. Tojimat Qodirovich Sattarov chet til grammatikasini faol o'zlashtirish eksperimental metodikasini ishlab chiqqan. (Sattarov, 2010)

Nemis tili sintaksisini o'zbek auditoriyasida o'rganish bo'yicha ham ibratlari tajriba-sinov o'tkazilgan. Bir nechta ilmiy ishlarda chet tilni o'rgatish sohasidagi bajarilgan tajriba-sinovlar ibratomuz namunalar darajasiga ko'tarilgan. Tajriba -sinov mavzusida metodistlardan Eduart Abramovich Shtulman chuqur ilmiy tadqiqot olib borgan.
(E. A. Shtulman)

I.2. Chet til o'qitish metodikasining asoslanadigan prinsipari

Ta'limni tadqiq etadigan fanlar (ta'limshunoslik va xususiy metodika)da "prinsip termini ham o'ziga xos tushunchalarni ifodalaydi . Prof. Y.I.Passov ta'biricha "prinsip-o'qitish jarayoni atalmish binoning poydevoridir". Tabiatda prinsiplar yo'qligi, faqat qonunlar borligi haqida bilish nazariyasida ma'lumotlar keltiriladi. Prinsip "asos bo'ladigan yo'l- yo'riq, qonun- qoida" ma'nosida ishlatiladi. Ta'limshunoslikda xilmashil prinsiplar tizmasi bayon etiladi. Chet til o'qitish metodistlari ta'limshunoslardan tadqiqotlaridan samarali foydalanishadi, biroq ularning borligini o'zgarishsiz, befarq holda tan olaverilmaydi, ya'ni o'quv predmetini hisobga olib, ularni tadbiq etishadi. chet til o'qitish metodikasida turli mualliflar tomonidan bir necha ilg'or prinsiplar olg'a surilgan. (Passov, 1991)

Chet tillar o'qitish metodikasida prinsiplarni tadbiq etish, ularni ilmiy-nazariy asoslab berish masalalari ko'plab metodistlar etiborini tortib keladi. Chet el va mamlakatimiz metodikasi manbalarida bu sohada munozarali fikrlar yoritilgan. Avvalan, chet til o'qitish metodikasi prisiplarini olg'a surish mezonlari haqida fikr yuritiladi. Birinchisi - bu mezon chet tildan boshqa o'quv predmeti metodikasiga tatbiq etish o'rinsizligi, ya'ni predmetning o'zigagina xosligi mezoni. Ikkinchisi -chet til metodikasida shakllangan prinsipga oid ilmiy tushunchalarning hatto yaqin fanlarga ham daxli yo'qligi, mazkur sohanigina ask ettira olish mezoni. Mas. qiyinchiliklarni cheklash prinsipi boshqa fanlarni o'qitishda ham ishtirok etishi mumkin. Shu bois ta'limshunoslik yoki ruhshunoslik prinsiplari chet tilmetodikasida ushbu fanning xususiyati inobatga olgan holda tadbiq etiladi, xolos. Birgina misol: qiyinchiliklarni cheklash prinsipining chet tilda boshqa tomoni ham namoyon bo'ladi, ya'ni osondan qiyinga prinsipi bevosita qabul qilinmasdan (tish oralig'i undoshini eslang), qiyinchiliklarni taqsimlab berish orqali royobga chiqariladi.

Soniyan, mazkur mezonlar asosida metodik prinsiplar tadqiq etiladi. Chet til o'qitish metodikasi prinsiplari mazmunan va shaklan bir xil emas. Ayrimlari umumlashgan (mas. nutqiy yo'nalganlik prinsipi) qo'llanadi, qolganlari esa ushbu predmet mohiyatiga o'ta xosligi bilan (mas. gramatikani o'rgatish prinsiplari) ajralib turadi .

Binobarin, chet tilo'qitish metodikasining umumiyligini xususiy va maxsus prinsiplari ishlab chiqilgan. ushbu prinsiplarni farqlash va izchil asoslash fanda oxirigacha to'liq yetkazilmaganligi ta'kidlab o'tish joizdir.

Ilmiy manbalarda birinchi nomdagi prinsip barcha mutaxassislar tomonidan yakdil tan olingan. Ikkinci prinsipni prof. G.H. Rogova va boshqalar tavsiya etgan. Uchichi prinsip prof. M.V.Lyaxovitskiy tadqiqotlarida uchraydi. To'tinchi prinsip aksariyat metodistlar tomonidan ma'qullanishi bilan birga, uning nomlanishida jiddiy farq seziladi. Rus tilida chop etilgan yoki rus maktablari tajribasini aks ettiradigan ilmiy adabiyotlarda "ona tilini hisobga olish prinsipi" termini qabul qilingan. O'zbek maktablarida chet til o'qitish tadqiqotchilari asarlarida u "til tajribasini hisobga olish prinsipi" deb ishlatiladi. O'quvchilar chet tildan avval ona tili va ikkinchi til o'ganishlari sababli bu prisipga shunday nom berilgan. Metodikaning umumiyligini pinsiplari quyidagilardan iborat:

- 1) chet til o'qitishning nutqiy yo'nalganlik prinsipi
- 2) chet tilni chegaralab (farqlab) va yaxlit o'rganish prinsipi
- 3) mashqlarga asosiy o'rinni berish prinsipi
- 4) til tajribasini hisobga olish prinsipi

Umumiyligini quyidagicha sharhanishi mumkin. Nutqiy yo'nalganlik prinsipiga ko'ra chet tilni aloqa vositasi sifatida egallash, ya'ni o'quv dasturidagi mavzular doirasidasida nutqiy ko'nikma va malakalar hosil qilish maqsadida ta'limgarayoni tashkil etiladi. Chet tilni amaliy egallashga nutqiy mashqlar orqali erishiladi. Til materialini o'rgatuvchi mashqlar miqdori juda ko'payib ketsa, nutqiy yo'nalganlikka putur yetadi. Leksik, grammatik, talaffuz mashqlarining davomi chet tildagi nutqda ularni qo'llash bilan yakunlanadi. Til birliklarini o'zlashtirish nutq faoliyatini o'zlashtirshga bo'yisindiriladi. Pirovard natija chet tilda axborot olish/berish bilan tugallanishi amaliy yo'nalganlik prinsipining asosiy shartidir.

Nutqiy yo'nalganlik prinsipiga talabiga binoan chet til o'rganuvchilar gapiruvchi, o'quvchi, tinglovchi, yozuvchi sifatida nutq faoliyatida ishtirok etadilar.

Ikkinci prinsipga ko'ra chet tildagi nutq farqlanib, til materiali esa yaxlit tarzda o'rganiladi. Chunki gapishtish, tinglab tushunish, o'qish va yozuv o'ziga xos xususiyatga ega. Og'zaki nutq (gapishtish va tinglab tushunish), yozma nutq (o'qish va yozuv), gapishtish (yakka nutq va juft nutq), o'qish (ovozli va ovozsiz), ovozsiz o'qish (mazmunni umumiyligi tarzda yoki to'liq tushunish), yozuv (yozish, imlo, yozma fikr bayon etish)ni farqlab o'rgatish ushbu prinsip mazmunini tashkil etadi.

Qayd etilgan nutq faoliyati turlari yoki ularning tarkibiy qismlari ta'larning turli bosqichlarida o'z chegarasi (sifat va miqdor) mavjud. Ularni farqlab o'rgatish deyilganda, bir-biridan butunlay ajratib tanlash emas, balki har birining muayyan ko'rsatkichi borligi tushuniladi, ya'ni ular o'zaro bog'liq holda o'rganiladi. O'quv dasturi va darsliklar bularni hisobga olib tuziladi.

Muhokama qilinayotgan prinsipning ikkinchi qismi yaxlit o'rgatishga bag'ishlanadi. Yaxlitlik (integratsiya) til materialini o'zlashtirishga taaluqli metodik hodisa. Leksika, grammatika va talaffuz birliklari tarqoq holda emas, balki yaxlit tarzda, ya'ni leksikada grammatika, leksika va grammatika asosida esa talaffuz o'rgatiladi. Ajratib o'rgatish hollari ularning qiyinchiligini bartaraf etish uchungina kerak. Yaxlitlik tinglab tushunish va gapishtishni mashq qilishda, o'qish va tinglab tushunish, o'qish va yozuvni o'rganishda ham kuzatilishi ham tabiiy. Tajriba ko'rsatishicha, har bir darsda o'quvchi gapiradi, tinglaydi va yozadi. To'rtala nutq faoliyati turi bo'yicha bajariladigan mashqlar miqdoran bir xil emasligi muallimlarga ma'lum.

Ta'limgarayonida uzviy aloqa o'rnatilishi til materialini o'rganishga, chegaralash esa nutq faoliyati turlarini egallashga ko'proq daxldor prinsipdir.

Uchinchi metodik prinsip talqini, o'z nomidan ravshanki, chet til o'qitishda mashqlar bajarish asosiy ish usuli ekanini tasdiqlaydi. Til materiali, til texnikasi, nutq faoliyati turlari, o'zlashtirish bosqichlari kabilarni hisobga olib mashqlar bajariladi: leksika,

grammatika, talaffuz mashqlari, gapirish, tinglab tushunish, o'qish va yozuv mashqlari, yozish va o'qish texnikasi mashqlari, ko'nikma hosil qilishga mo'ljallangan mashqlar.

Umumiy prinsiplar ichida til tajribasini hisobga olish alohida ahamyatga molikdir. O'quvchi hozirgacha o'zlashtirgan ona tili va ikkinchi til hamda chet tilning o'zidan o'rganilgan hodisalar yangi material taqdimoti chog'ida ko'maklashuvchi yoki qarshilik ko'rsatuvchi omil bo'lishi mumkin. O'quvchi ongida aloqaga kiradigan uchala til operatsiyasi, harakat va faoliyat darajalarida to'qnashadi. Boshqacha qilib aytganda, oldin o'zlashtirilgan til mavhumoti, ko'nikmasi va nutq malakasi o'rganilayotgan tilga salbiy /ijobiyligi ta'sir qiladi. Qisqasi to'plangan til tajribasi istiqbolda ko'zlanadigan nutq ko'nikma va malakalarini egallahda hisobga olmog'i lozim. Nutq malakalarini ijobiyligi (transpozitsiya) yoki salbiy (inteferensiya) ko'chishi haqida ma'lumotlar mashqlar sistemasini tuzishda hisobga olinishi shart bo'lib, o'quv jarayonida ular haqida o'quvchilarga ma'lumot berilmaydi. Oz yoki ko'p kuch va vaqt sarflanishi til birligining oson yoki qiyinligi bilan belgilanadi.

Yuqoridagi fikrlardan qisqacha xulosa shuki, chet til o'rgatish metodikasi umumiy prinsiplar ushbu chet tilning mohiyatini ifodalash, boshqa predmetlardan uning keskin farqini ko'rsatish va o'qitish yo'l -yo'riqlarini aniqlashga jiddiy yordam beradi.

Chet til o'qitishning xususiy prinsiplariga kelganda, ular bayon etilgan umumiy prinsiplar bilan mazmunan tutashgan bo'lib, torroq ma'nodagi metodik hodisalarni aks ettirishini ta'kidlash darkor. Xususiy prinsiplar tizmasi quyidagilardan iborat:

- 1) nutq namunasi asosida chet til o'rgatish;
- 2) til mashqlarini nutq amaliyoti bilan bo'g'lash;
- 3) nutq faoliyati turlarining o'zaro munosabati;
- 4) og'zaki nutqning ilgarilashi;
- 5) chet tilda tabiiy nutqqa yaqinlashish;
- 6) ibtidoiy bosqichni jadallashtirish.

Chet tillar o'qitish metodikasi fanida xususiy prinsiplar M. V. Lyaxovitskiyning taklifi va tasnifi asosida ko'rib chiqildi.

Xususiy prinsiplarning birinchisi "nutq namunalari asosida chet til o'rgatish "ni tashviqot qiladi. Xalqaro miqyosda chet til o'qitish metodikasida nutq namunasini asos birlik sifatida tan olish oqilona yo'l deb qaraladi. Leksika , grammatika va talaffuz birkliklari nutqiy namunalarda o'zlashtirilishi ommaviy tus olgan.

Nuqt namunalari ilmiy asosda tanlanadi, taqsimlanadi va mashqlar sistemasida taqdim etiladi. Nutq namunasi og'zaki nutqning ilgarilashi prinsipida, avvalan, tayyor jumla mavqeyiga, soniyan, undagi tarkibiy qismlar almashtirilib , o'rganilayotganda tipoviy jumla mavqeyiga molik bo'ladi. Mas. Ich sehe ein Buch, dastavval o'rganilishida yaxlit jumla tarzida olinadi. So'ngra nutq namunasining qismlari o'zlashtirilganda, tipoviy jumla huquqini oladi. Endi yangi leksik birlikni o'quvchi nutq namunasida mustaqil qo'llay oladigan payt keldi. Nutq namunasining so'roq va bo'lishsiz shakllari birinchi bor muallim nutqida tinglab o'rganiladi. Birdan ortiq misolda ega til hodisalari yuzasidan mavhumot keltirib chiqariladi, endi boshqalari o'quvchilar tomonidan nutqda qo'llay boshlanadi.

Mas. Ich sehe ein Buch nutq namunasiga taqlidan Ich lese ein Buch, Ich schreibe ein Brief kabilar mustaqil jumlalardir. Qoida: birinchi, kesim ikkinchi, to'ldiruvchi esa uchinchi o'rinda keladi. Metodik qonuniyat: nutq namunasi tanish, so'zlar yangi, so'zlar tanish, nutq namunasi yangi. Har ikkalasi notanish bo'lishi mumkin emas. Notanish hodisani ushbu sharoitda muallim taqdim etadi.

Jahon metodikasida nutq namunasining chet til o'rganish birligi huquqi tan olingan. (Turli mualliflar ushbu terminni o'zlari istagan so'zlar bilan yuritishadi: struktura, konstruksiya, model, tipoviy gap/jumla va boshqalar).

Alqissa: chet tilda o'gzaki nutq shaklini o'rganishda (ruhshunoslikda "verbalizatsiya"prinsipida) nutq namunasini o'zlashtirishdan ish boshlanadi. Audiolingval metodning muhim prinsiplaridan ekanligini eslang. Zamonaviy chet til darsliklarining aksariyati ushbu prinsipga asoslanib tuzilgan.

Xususiy prinsiplarning ikkinchisi til mashqlarini nutq amaliyoti bilan bog'lash masalasiga oid. Til materialini o'rganish kutiladigan maxsus maqsad bo'lmay, chet tildagi nutqni egallah zaruriyati tobe vosita, deb tushuniladi.

Xullasi kalom, dasturdagi leksikaning to'liq ro'yxatini bilish tilni egallah emasdir aslo, balki leksikani nutqda qo'llashni bilish qat'iyan talab etiladi.

Til birligini taqdim etilishi (tанишиси) bosqichi albatta mashq qilish (ко'никма шакланиси) va qo'llash (малакага ертиси) pog'onalaridan ko'tarilish uchungina kerak.

Mashq qilish til birligi taqdimotidan boshlanib, jonli ma'lumot bilan tugallaishi til materialini nutq amaliyotida o'rganishni ifoda etuvchi ushbu xususiy prinsipning yagona talabidir.

Nutq faoliyati asosiy turlarining o'zaro munosabati muammosi prinsiplardan birida qaraladi. Gapirish, tinglash, o'qish va yozuv bir-biri bilan uyg'unlashib ketadi. O'quvchi gapirganida qo'llangan birliklarni tinglab va o'qib tushuna oladi, yozuvda ham ishlata biladi. O'qish til materialini o'quvchi tinglab tushuna oladi. Ko'rinish turibdiki, til materiali ma'lum nutq faoliyati turidan boshqasiga o'tib yuradi.

Gapirish materiali o'qish va yozuvda mustahkamlanadi. O'qish va tinglash matnlari leksikaning bir qismi (teng yarmi) gapirishda takrorlanadi. Idrok etib tushunilgan grafik yoki audiomatndan keyin gapirish mashqlari bajariladi. To'rt sezgi/analizator nutq faoliyatida qatnashsagina puxta dinamik stereotip hosil qilinishini eslang.

Muhim xususiy prinsiplardan hisoblanmish og'zaki nutqning ilgarilashi tushunchasi audiolingval metodga ham mansubdir. Prinsipning to'liq nomi "til materialini mashq qilishda og'zaki nutqning ilgarilashi", deb ataladi. Keyingi paytlarda yana boshqacha qilib, og'zaki nutqning o'qish va yozuvdan oldin yurishi nomi bilan ham atalmoqda.

Og'zaki nutqdan keyin yozma nutq mashqlarini bajarishning qator qulayliklari bor, tovush timsoli grafik shakldan ajratib o'zlashtiriladi, nutqharakat sezgi /analizatori va qo'lharakat sezgi/analizatori alohida-alohida ishga tushadi. Og'zaki va yozma

retsepsiya va reproduksiya avval bir-biridan ajratiladiva keyinchalik birlashib, o'zaro mustahkamlanadi. Ilgarilash prinsipi maktab chet til darsliklarida har xil metodik ko'rinishga asoslanib ishlab chiqilgan

Navbatdagi xususiy prinsip "chet tilda tabiiy nutqqa yaqinlashish" deb ataladi. Chet tilni o'z ona tillari moqomida biladiganlarning nutq faoliyatida ham mutlaq o'xshashlik bo'masligi xammaga ma'lum.

Bir tilda so'zlashuvchilarning ayniqsa talaffuzida tafovut yaqqol bilinadi. Boshqa birliklarda va nutq faoliyati turlarida ham ushbu til egalarining umumiylilikka erishishlari amri maholdir. Modomiki shunday ekan, o'quvchilarning chet til ko'nikma va malakalari o'sha tildagi taxminan o'xhash bo'lishi turgan gap. O'rtada muammo paydo bo'ladi, qanday talaffuzni o'ganish kerak? Metodika ilmida bunga bop javob topiladi: chet til talaffuiga taxminiy yaqinlashish vazifasi turadi. Agar chet til fonetik hodisasi ma'no o'zgartirishga sabab bo'lsa (mas. ingliz so'zi oxiridagi(auslaut) jarangli undoshning jarangsizlanishi), ushbu tovush me'yorda to'g'ri talaffuz etilishi shart qilib qo'yiladi, So'zning boahqa qismida (anlaut, inlaut) kelganda, unga kamroq ahamiyat beriladi, chunki u ma'no o'zgartirmaydi.

Tabiiy nutqqa yaqinlashish prinsipi grammatik yoki leksik birlikni o'zgartirishda ham huddi shunday talqin etiladi. Mas. o'quvchilar yakkanutq yoki juftnutqda qatnashayotganlarida yo'l qo'yishgan ba'zi grammatik xatolar, nutq mazmuni talabiga javob bergen taqdirda, o'quvchi bahosini muallim pasaytirmaydi, chunki fikr bayon etish/ almashish chet til o'qotishda yagona maqsad, til xatosi keyin to'grilanishi mumkin bo'lgan hodisadir.

O'quvchi nutqining chet tildagi nutqqa taxminiy yaqinlashishi uning xato qilib qo'yishdan xavfsirashi, to'g'ri ayta olish /olmasligidan xavotirlanishi kabi psixologik to'siqlarni yengishi uchun katta yo'l ochadi, erkin gapishtirish va bamaylixotir muloqotga kirishish imkoniyatini yaratadi.

Xususiy metodlardan muhokama etiladiganlardan so'nggisi "ibridoiy bosqichni jadallashtirish" nomini olgan. Aniqroq qilib aytganda, chet tilo'qitishning dastlabki bosqichida jadal ishslash demakdir.

Boshlang'ich bosqichda o'quvchilar haftada, keyingi sinflarga nisbatan, ko'proq shug'ullanadi. Chet til kursining (jadal/intensiv) mashg'ulotlari samaradorligi yuqori ekanligi tajribadan ma'lum. O'zaki nutqni jadal egallash dars soatlarining tez-tez tokrorlanishiga bevosita bog'liq. Haftada to'rt-besh marta dars o'tilishi gapishtirish ko'nikma va malakalarining shakllanishida hal qiluvchi omildir. Albatta boshqa tomonlar (mas. sifatli darslik, o'quvchi metodik malakasi) ham ahamyatga molikdir.

Umumiylar va xususiy prinsiplar qatorida chet til o'qitish maxsus prinsiplarini bilish ta'lim jarayonini boshqarishda qo'l keladin. Maxsus prinsiplar metodik qo'llanmalarda to shu vaqtgacha ilmiy andazalanganicha yo'q. Ularni yirik metodistlar ilmiy tadqiqotlаридан terma usulda o'rganib olish mumkin. *Maxsus prinsiplar* til materiali (leksika, grammatika, talaffuz) yoki nutq faoliyati turlari (gapishtirish, tinglab tushunish, o'qish, yozuv), ta'lim (texnikaviy/notexnikaviy) vositalari asosida sistemalashtirilgan. O'zbek maktablari uchun ham chet til o'qitish maxsus prinsiplari tizmasi tadqiq etilishi mumkin.

Ilmiy tadqiqotlarda chet til grammatikasini (V.S.Setlin) va leksikasini o'rganish (V.A.Buxbinder) cet tik o'qishni o'rgatish (S.K.Folomkina) chet til o'rgatishda tivush yozuvidan foydalanish (M.V.Lyaxovitskiy) bo'yicha maxsus prinsiplar ishlab chiqilgan.

I. 3 Chet til o'qitish metodikasining umumdidaktik prinsiplari

Chet til o'qitishda didaktik prinsiplar. Asrlar osha minglab pedagoglar taklif etgan qoidalar va qarashlar didaktik (ta'limiy) prinsiplar maqomida umumlashtirildi va ilmiy asoslandi. O'qitish tajribasidan kelib chiqadigan va turli davrlar sinovidan muvaffaqiyatli o'tgan didaktik prinsiplar tizmasi yaratildi. Ularning nomlanishi va mohiyatida tafovutlar borligiga qaramay, hozirgi zamon ta'limshunosligida mustahkam o'rin egallagan quyidagi didaktik prinsiplar aksariyat pedagog va metodistlarga ma'qul va manzur; tarbiyaviy ta'lim, onglilik, faollik, ko'rgazmalilik, sistemalilik (izchillik), individual yondashish, (bilimlarni puxta o'zlashtirish, o'quvchi kuchiga moslik kabilar.

Ta'limshunoslikda ommalashgan mazkur prinsiplarni har bir o'quv predmetida o'ziga xos tadbiq etilishi tabiiydir

Tarbiyaviy ta'lim prinsiipi o'sib kelayotgan avlodni har tomonlama yetkazish vazifasini ro'yobga chiqarishni nazarda tutadi. Chet til o'quv predmeti oldida turadigan maqsadlardan biri tarbiya berish ekanligi ma'lum .

Ta'lim mazmuniga ko'ra o'quvchilar chet til vositasida o'zlashtiradigan axborat va chet til o'rganish mobaynida oladigan aqliy va nutqiy ko'nikma va malakalar ularning tarbiyasiga bevosita daxldor.

Boshqa o'quv predmetlarida bo'lganidek, chet til o'rganish jarayonida ham o'quvchilarni tarbiyalash matabning asosiy vazifalaridan sanaladi. Ona vatanga sadoqat, tabiatga muhabbat, kishilarga hurmat, yaxshilik qilish,adolparvarlikka intilish, baynalminal his-tuyg'u singari ijoboy hususiyatlarni singdirish chet til o'rganishda muhim o'rin egallaydi.

Onglilik prinsiipi metodika ilmida turli hajmdagi tushunchani ifodalagan.Mas. 1950-yillar metodikasida "onglilik" deganda, til materialiga oid qoidalarni o'ganish yoki tarjima qilish ma'nosini anglatar edi. Ona tiliga qiyoslash ushbu prinsipda tayanch tushuncha edi. Shu munosabat bilan "ona tiliga suyanish" prinsipiga asos solingan. "Suyanish" ma'nosi, boshqacha qilib, "tarjima" deb tushunilar edi. Chet til haqida haddan ziyod qoidalalar shunchalik ildiz otgan ediki, harf/tovushdan tortib matngacha

barcha til materiali nazariy bilimlarni namoyish etishga bo'ysundirilar edi. Qoidani bilish umumta'limiy maqsad bilan bir pog'onada edi, ya'ni chet til sistemasini chuqr anglab yetishga intilishgan. Xullas chet tilni emas, balki u haqdagi mavhumotlarni o'rganishdek g'ayrimetodik (bugungi nuqtai nazarga qaraganda albatta) qonuniyat hukm surar edi.

XX asrning 60- yillaridan boshlab onglilik prinsipi chuqr ilmiy va eksperimental tarzda tadqiq etildi va termin ma'no doirasining yangicha talqini vujudga keldi.

Hozirgi kunda onglilik prinsipi chet til o'rgatish jarayonida mana bunday tadbiq etilmoxda: *birinchidan*, o'quv materialining tub mohiyatini tushunib yetish (falsafiy ma'noda mazmun va shakl birligiga erishish), ya'ni chet tildagi jumla va nutqning mazmunini anglash, *ikkinchidan*, til materialini qoidada emas, balki nutq amaliyotida ongli (malakali) qo'llay olish, axborot almasha olish va nihoyat, uchinchidan, "avvalo nutq va keyin sodda qoida" atalmish me'zonga itoat qilib ish ko'rish, til tajribasidagi muvofiqlik (analogiya) va induktiv yo'l tuzish (til hodisasini qo'llash, so'ngra mavhumotga o'tish) kabi metodik tadborlar onglilik prinsipi doirasiga kiradi.

Bayon etilganlardan ko'rinish turibdiki, onglilik prinsipiga asoslanish- bu ona tilning tutgan mavqeyini nazardan chetda qoldirmaydi. Aksincha, ona tili chet til o'rganishda asqotadi, biroq nutq birlamchi, nazariya (mavhumot) undan hosila, ya'ni u ikkilamchi. Ko'zlanadigan maqsad- ma'no va mazmunni anglab yetishdir. Amaliy (kommunikativ) vazifalarni (mas. aytish, so'rash, o'qish, yozish kabilarni) bajarishda o'zlashtirilgan ko'nikmani malakada ishlata bilish haqida gap boryapti. Nihoyat, onglilik tushunchasi o'quvchilarni til o'rganishdagi ijodiy tashabbuskorligi, mustaqilligini oshirishga borib taqaladi. Quruq yodlash yoki faqat to'tiqush yanglig' taqlid yo'li bilan takrorlash, qoidalarni nutqdan ajratib o'zlashtirish kabi metodik xatolardan qutulish o'quvchini onglilik sari yetaklaydi.

Faollik prinsipi chet tildagi nutqda astoydil qatnashish bilan chambarchas bog'liq. Avvalo shuni bilish joizki, tashqi faollik- ko'p jumla aytish, ong ishtirokisiz bajariladigan mashqlar miqdori faollikning yetakci ko'rsatkichlari emas. Og'zaki va

yozma nutqni ijodiy egallahsha, nutq faoliyati yuritishda o'z ehtiyojini qondirishga intilish masalasi turadi. Faollikning asosiy belgilari xohish-istak, qiziqish, fikran intilish kabi ruxshunoslik tushunchalarida namoyon bo'ladi.

Chet til o'rganishga kirishar ekan, o'quvchi uni qiziqib egallay boshlaydi. O'quvchilarining muvaffaqiyatga erishish darjasini uning faollik holatiga to'g'ri bo'lishi tajribadan ma'lum. O'ganilayotgan til o'quvchiga quvonch bag'ishlasa, faollik oshadi, aks holda sustkashlik sodir bo'lib, qiziqish so'na boradi.

Faollik aqliy, hissiy va nutqiy kabi uch ko'rinishdan iborat. Nutqni egallah hissiy quvonch va aqliy kamolot keltirgandagina faollik uchqunlari yashnay beradi.

O'quv- tarbiya o'choqlarining barcha turlari faollik prinsipiga rioya qilinib ish ko'rildi."Faollik" terminining ma'nosi shunchalik kengayib ketdiki, hatto metodist-olimlar orasida ushbu so'zni metod bilan birlashtirishgacha yetib borganlar topiladi. Fanda "aktiv metod" termini paydo bo'ldi. (I.F. Kamkov, 1970) Holbuki barcha metodlar faqat faollikni talab etadi, qoloq yoki sust metodlarni, albatta, hechkim tavsiya etmaydi. Faollik tushunchasi bilan metod emas, balki prinsip fikran bog'lanishi mumkin.

Shuning uchun ham darsda har bir o'quvchining nutqiy ishtiroki maxsus hisobga olinmog'i kerak: xor bilan ishlash sinf/guruhnning bиргалашиб ishlashi, juft bo'lib suhbatalashish, individual ishlarda o'quvchilar qobiliyatini hisobga olish kabi metodik tadbirlar keng joriy etiladi.

Nutq faoliyati turlari va til materiali bo'yicha mashqlar istalgam me'yorda bajarilishi faollik darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Qiyinchilikni yengish, chet tildagi nutqda xato qilishdan cho'chimaslik, o'quvchi nutining uning shaxsiy hayotiga daxldorligi, xilma-xil ish tartiblarini qo'llash (o'quvchi-o'quvchi, muallim-o'quvchi, muallim- sinf, o'quvchi-sinf va hakazo).o'yin va lisoniy musobaqalar o'tkazish kabilar faollikni kuchaytirish omillaridandir.

Ko'rgazmalalik prinsipi chet tillar o'qitishda munosib o'ren egallaydi. Ko'rgazmalilik ayrim o'quv predmetlarida faqat ko'rish bilan assotsiatsiyaga kiradi. Chet tilda ko'rish va eshitish sezgilari orqali idrok etiladigan tashqi va ichki ko'rgazmalilik tushuniladi. Til materialini tushunish, o'zlashtirish va qo'llash maqsadlarini ro'yobga chiqarish uni maxsus nomoyish etish va nutqda qo'llash ko'rgazmalilik yordamida amalga oshiriladi.


O'quvchi ona tilini tabiiy predmet va hodisalar og'ushida o'rganishi, chet tilni egallah esa sun'iy sharoitda kechishi tufayli bunda ko'rgazmalilikning zarurligi yanada oshadi.

O'quvchlarning tinglab tushunishini osonlashtirishda muallim nutqidan tashqari diktor nutqi han eshitishga qo'yiladi. Auditiv (eshitiladigan) texnika vositalaridan sinfda, chet til xonasida va uyda yetarli foydalanish tavsiya etiladi.

Til materialini mashq qilish va nutqda qo'llash jarayonida ko'rishga mo'ljallangan vositalar (slaydlar, diafilmlar, kinofilmlar) o'rinni ishlatiladi.

Ko'rgazmalilik ikki yirik guruhg'a bo'linadi: tashqi (predmetga oid) va ichki (lisoniy) ko'rgazmali vositalar. Tashqi ko'rgazmalilik tasvirda, mas. predmed, rasm, jadval yoki harakat tarzida va ichki ko'rgazmalilik esa til imkoniyatlaridan kelib chiqadigan ko'gazmalilikdir. Ichki ko'rgazmalilik tovush/ harfni namoyish etishdan boshlab, matndagi mazmun (konteks)gacha bo'gan qator til vositalaridan iboratdir. Yangi so'zning matndagi ma'nosini fahmlab olish, so'z yoki forma yasash elementlari yordamida til birligini tushunib olish, til tajribasidan foydalanish til ko'rgazmaliligini tashkil etadi. Predmet va til bilan bog'liq ko'rgazmaliliko'rganilayotgan o'quv materialining xususiyati va o'qitish bosqichiga qarab muallim tomonidan farqlab qo'llaniladi. Prof. G.V.Rogova barcha ko'rgazmali vositalarning quyidagi tasnifini keltiradi.

KO'RGAZMALILIK



(J. Jalolov)

Mazkur tasnifni metodist G.V.Rogova ruhshunos prof. B.V.Belyayevning ko'rgazmalilikka oid tavsiyalariga asoslanib tuzgan. (B.V.Belyayev, 1965) Chet til o'qitishda qo'llanadigan ko'rgazmalilik haqida boshqa mutaxassislar ham qimmatli ilmiy mulohazalar yuritishgan. (V.A.Artyomov, 1969)

Puxta o'zlashtirish prinsipi chet tilda o'ziga xos talqin etiladi. Turli metodik sistemalarda ushbu prinsipdan turlicha foydalanilgan. Chet til birliklari (so'z, so'z birikmasi, nutq namunasi)ni o'quvchining xotirasida saqlanishi, nutq faoliyatida ularidan xohlagancha foydalanishi puxta o'zlashtirishni ta'minlay oladi. O'quv materialini analiz, sintezlash, qiyoslash, mulohaza yuritish yordamida ta'sirchan taqdimoti, tanishishdan keyin materialni ko'rish, eshitish, harakat (nutqharakat va qo'lharakat) analizatorlari ishtirokida ko'plab mashq qilish va chet til nutqida ijodiy qo'llash (fikr bayon etish va o'zgalarni tushunish) hamda o'rganilgan materialni o'zlashtirish darajasini nazorat qilib borish bilan puxta o'zlashtirishga erishiladi.

Til birliklarini o'zlashtirishda mashqning ahamiyati ulkandir.

O'quv materialini puxta o'zlashtirish deganda, chet tildagi nutqda til birliklari bo'yicha barqaror ko'nikma va malakalar hosil qilish tushuniladi. (Qoida yoki nazariy bilimlarni

mustahkam egallash fan asoslarini o'gatuvchi o'quv predmetlari uchungina taaluqlidir.)

Yakka- yakka (individual) yondashish prinsipi qo'llashda har bir o'quvchining qobilyati hisobga olinadi. Shu bilan bir paytda jamoa bilan ishlash ham inkor etilmaydi, albatta. Ruhshunoslikdan ma'lumki, kishilar orasida ekstravertlar va introvertlar bor. Ekstravertlar deganda, "ochiq odam", ya'ni muloqotchi, suhbatchi, gaplashishga moyil odam tushuniladi. Uning pirish mashqlarini bajarishga faolroq jalb etish tavsiya etiladi aksi esa introvertdir, ular gaplashishga unchalik intilmaydilar. Chet til o'rgatishda introvertlarni gapirish mashqlarini bajarishga faolroq jalb etish tavsiya etiladi. Ekstrovertlarning e'tiborlari esa o'qish va tinglash tushunishga qaratiladi.

Ta'limshunoslikdagi yakka-yakka yondashish prinsipi muallim oldiga quyidagi vazifalarni qo'yadi: har qaysi o'quvchining tabiatni, nimalarga qodirligi, qiziqishi , kim bilan oshnachilik qilishi, nimallarga salbiy munosabatda bo'lishini muallim bilmog'i zarur. Mas. chet tildagi juftnut mashqini bajarishda kimlarni sherik qilishdek psixopedagogiktadbir yaxshi/yomon natija berishi mumkin. Yoki tarqatma material beriladigan paytda o'quvchining barcha xususiyatlari inobatga olinadi.

Muallim darsga tayyorgarlik ko'rayotgan paytda ham o'quvchilarning ijobiy va salbiy tomonlari e'tibordan chetda qolmasligi kerak. Ularning bilim darajasidagi taffovutlari alohida hisobga olinadi.

Prinsiplar ichida *sistemalilik* chet tilda butunlay ayricha ma'no kasb etadi. Fan asoslarini o'rgatishda ilmiy bilimlar sistemali bayon etiladi. Chet til o'quv predmeti esa bilimlar yig'indisini o'rgatmasligi hammaga ayon. Nutq birlamchi, sodda mavhumot uning hosilasi ekanligi mezon qilib olinadi.

Chet til muallimi til materialini sistemali emas, balki "nutq uchun zarur va kifoya" qonuniyatiga rioya qilib o'rgatadi. Mas. harflar alfavit tartibida berilishi shart emas. Og'zaki nutqda o'zlashtirilgan leksik birlikni yozish uchun muayyan harf beriladi. Binobarin, 26 ta harf birinchi o'quv yili taqdim etilishi ham majburiy emas. Grammatik hodisalar ham grammatik sistemada taqdim etilmaydi. Grammatikani o'rgatish tartibi

nutq ehtiyojiga qarab belgilanadi. Leksikadan bir misol. "o'zak so'z oldin, yasama so'z keyin degan qoida metodika uchun g'ayriilmiy hisoblanadi.

Til birliklari sistemali taqdim etilmaganidek, ulardan yaratiladigan mavhumotlar ham sistema holida berilmasligi o'z- o'zidan ma'lum. Mas. "artikl" tushunchasi nutqiy materialda uchrashiga qarab taqdim etiladi, umumiylaz nazarイヤdan o'quvchilar bexabarlar. Chunki qoida (mavhumot) nutq ko'nikma va malakalarning shakllanishida yordamchi ta'limi vosita sanaladi.

Chet tilda nutq malakalari sistemasini yaratish yoki egallash ushbu prinsip mohiyatini ifodalaydi. Gapirish, tinglab tushunish, o'qib tushunish, yozma axborot berish sistemi dasturda tavsiya etiladi. Savolga javob qaytara olish, o'zga shaxs nutqini idrok etib tushuna olish va h.k muntazam mashq qilinadi.

Didaktik prinsiplardan *oson-qiyinlik* yoki *o'quvchi kuchiga moslik* tushunchalarining ham chet til o'qitishda o'zgacha tadbiqi kuzatiladi. Bilim beradigan o'quv predmetlari mavzulari yoki tushunchalarini o'rgatishda "osondan qiyinga" qonuniyatiga rioya qilinadi.

Birinchi bob bo'yicha xulosalar

Chet til o'qitish metodikasing asosiy tushunchalariga metod, metodika , prinsip, usul va boshqalar kiradi. Bu tushunchalar metodikada kategoriya atamasi bilan ham ifodalanadi. Bu kategoriyalar haqida tadqiqotchilar turlicha fikr bildiradilar. Metod termini "ta'lim usullari yig'indisi" va "ta'limning yo'nalishi" ma'nolarida qo'llanadi. Birinchi ta'lim nazariyasida ishlatsa (mas. og'zaki nutq o'rgatish metodlari, talaffuz o'rgatish metodlari), ikkinchi ma'noda uni o'qitish metodikasi tarixiga oid asoslarda uchratamiz. Mas. chet til o'qitishning tarjima metodi, to'g'ri metod, ongli qiyosiy metod, audiovizual metod va h.k

Chet til o'qitish metodi deyilganda chet til o'rgatishning amaliy , umumta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlariga erishuvchi ta'minlovchi muallim va o'qituvch faoliyatining majmuyi tushuniladi.

Metodik usul yanada kichik tushuncha bo'lib,"yangi so'zning ma'nosini ochish usullari", "til materialini o'rgatish usullari" singari birikmalar uchraydi Chet tillar o'qitish metodikasida prinsiplarni tadbiq etish, ularni ilmiy-nazariy asoslab berish masalalari ko'plab metodistlar etiborini tortib keladi. Chet el va mamlakatimiz metodikasi manbalarida bu sohada munozarali fikrlar yoritilgan. Avvalan, chet til o'qitish metodikasi prisiplarini olg'a surish mezonlari haqida fikr yuritiladi. Birinchisi - bu mezon chet tildan boshqa o'quv predmeti metodikasiga tatbiq etish o'rinsizligi, ya'ni predmetning o'zigagina xosligi mezoni. Ikkinchisi -chet til metodikasida shakllangan prinsipga oid ilmiy tushunchalarning hatto yaqin fanlarga ham daxli yo'qligi, mazkur sohanigina ask ettira olish mezoni. Mas. qiyinchiliklarni cheklash prinsipi boshqa fanlarni o'qitishda ham ishtirok etishi mumkin. Shu bois ta'limshunoslik yoki ruhshunoslik prinsipleri chet tilmetodikasida ushbu fanning xususiyati inobatga olgan holda tadbiq etiladi, xolos. Birgina misol: qiyinchiliklarni cheklash prinsipining chet tilda boshqa tomoni ham namoyon bo'ladi, ya;ni osondan qiyinda prinsipi bevosita qabul qilinmasdan (tish oralig'i undoshini eslang), qiyinchiliklarni taqsimlab berish orqali ro'yobga chiqariladi.

Prof. Y.I.Passov ta'biricha "prinsip-o'qitish jarayoni atalmish binoning poydevoridir". Tabiatda prinsiplar yo'qligi, faqat qonunlar borligi haqida bilish nazariyasida ma'lumotlar keltiriladi. Prinsip "asos bo'ladigan yo'l- yo'riq, qonun- qoida" ma'nosida ishlatiladi. Ta'limshunoslikda xilma-xil prinsiplar tizmasi bayon etiladi.

Metodikaning umumiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

- 1)chet tilo'qitishning nutqiy yo'nalganlik prinsipi
- 2)chet tilni chegaralab (farqlab) va yaxlit o'rganish prinsipi
- 3)mashqlarga asosiy o'rin berish prinsipi
- 4)til tajribasini hisobga olish prinsipi

Chet til o'qitishda didaktik prinsiplar. Asrlar osha minglab pedagoglar taklif etgan qoidalar va qarashlar didaktik (ta'limiy) prinsiplar maqomida umumlashtirildi va ilmiy asoslandi. O'qitish tajribasidan kelib chiqadigan va turli davrlar sinovidan muvaffaqiyatli o'tgan didaktik prinsiplar tizmasi yaratildi. Ularning nomlanishi va mohiyatida tafovutlar borligiga qaramay, hozirgi zamon ta'limshunosligida mustahkam o'rin egallagan quyidagi didaktik prinsiplar aksariyat pedagog va metodistlarga ma'qul va manzur; tarbiyaviy ta'lim, onglilik, faollik, ko'rgazmalilik, sistemalilik (izchillik), individual yondashish, (bilimlarni puxta o'zlashtirish, o'quvchi kuchiga moslik kabilar.

Ta'limshunoslikda ommalashgan mazkur prinsiplarni har bir o'quv predmetida o'ziga xos tadbiq etadi

II BOB METOD CHET TIL O'QITISH METODIKASINIG ASOSIY MANBAASI SIFATIDA

II.1.Chet til o'qitishning tarixiy metodlari.

Chet til o'qitish metodikasida "metod" termini asosan uch ma'noni bildiradi: *birinchidan*, metodika tarixidagi butun bir yo'nalish (tarjima metodi, to'g'ri metod, qiyosiy metod, aralash metod); *ikkinchidan*, yuqoridagi yo'nalish tarkibiga kiruvchi o'qitish sistemasi (mas. Fransua Guen metodi, Harold Palmer metodi, Maykluest metodi va boshqalar); *uchinchidan*, muallim va o'quvchining o'zaro bog'langan faoliyati usuli (tанизish, mashq qilish va qo'llash metodlari). Chet til o'qitish tarixida birinchi va ikkinchisi, odatda, "tarixiy" metodlar nomi bilan, uchinchisi esa "chet til o'qitish jarayonidametodlar"termini bilan yuritiladi.

Chet til o'qitish tarixida metodlar. Tarixan metodlar to'rt guruhga birlashtirilib, ularning nomlariga "tarjima", to'g'ri (yoki tarjimasiz)", "qiyosiy (yoki ongli qiyosiy)", "aralash" so'zlarini aniqlovchi sifatida qo'shib aytildi. Shunday qilib, chet til o'qitishning bir necha asrlik tarixidagi barcha metodlar ushbu to'rt toifaga to'plangan. Ularning har birini qisqacha tahlil qilish talab etiladi, chunki bugungi metodikada ularning ayrim xususiyatlari muayyan shaklda qo'llanilmoqda. (Metodlar tarixi atoqli metodist, prof. I.V.Raxmonov tomonidan chuqur o'rganilgan, 1949).

Tarjima metodi. Ushbu metodning nomi, odatda, "tarjima metodlari" termini bilan ko'plikda ishlatiladi. Nomiga ko'ra ma'nosini bilib olish qiyin emas: chet til materiali ona tiliga tarjima qilinadi. Yevropada, avvalan, yunon tili, keyinchalik lotin tili o'rganilganda tarjima tushunish usuli qilib olingan. XVIII asrnning ikkinchi yarmi va XIX asr davomida fransuz tili, XX asrda esa ingliz tili va, nihoyat, nemis tili, tarjima orqali o'ganib kelindi. Musulmon dunyosida esa asosan arab tili, qisman fors tili chet tillar sifatida o'rganilar edi.O'lik (mas. lotin tili) va jonli tillar tarjima metodi bilan o'rgatilib, bu jarayon mantiqiy tafakkurni rivojlantirish omili hisoblab kelindi. Arab tiliesa islom dini asarlarini o'rganish vositasi bo'lib, uni ko'chilik talabalar quruq

yodlash orqali o'ganishar edi. Oliy diniy o'quv yurtlarida arab, fors, turkiy, va boshqa tillar o'rganilgan.

Tarjima metodlari orasida eng ko'p tarqalganlari "grammatik- tarjima metodi" va "matn-tarjima metodi" nomlari bilan mashhur bo'lgan. Birinchisining nomoyondalari so'z va gap tarjimasini grammatika qoidalarini o'rgatish uchun tadbiq etganlar, ikkinchisining tarafдорлари esa matnni o'qish va uning mazmunini tushunishda tarjimadan foydalanishni maqsad qilib olishgan. Ikkala tarjima metodini qo'llashdan faqat ta'limiy maqsad ko'zlangan. Chet til retseptiv tarzda o'rganilgan. O'z davrining tilshunoslik va ruhshunoslik ma'lumotlariga asoslanib, chet til o'qitish metodlari ishlab chiqilgan.

Ayrim muallimlar hozirgacha tarjima metodlari usullaridan noo'rin foydalanishmoqda. Mas. matnni og'zaki tarjima qilish to'g'ri metodik usuldir. Matnning ayrim jumlalari yoki bir ikki bo'lagini muayyan maqsadda tarjima qilish man etilmaydi. Lug'atdan foydalanib, yangi so'zlarni ma'nolarini ochish maqsadida tarjima qilishga mo'ljallangan kichik matnlar berilishi mumkin. Bu yerda matnni tarjima qilishdan ko'zlanadigan metodik muddao lug'atdan foydalanishni o'rgatishdir.

To'g'ri metod. Metod terminini kelib chiqishiga asosiy sabab shundan iboratki, to'g'ri metodda o'qitish chog'ida ona tilini chetlab o'tib, chet til so'zi bilan predmet orasida bevosita assotsiatsiya (fikrni bog'lanish) o'rnatishga urinib ko'rilgan. Chet til grammatikasini o'rgatishda ham huddi shunday metodik yo'l tutilgan: grammatik ma'no bilan forma o'rtasida bevosita bog'lanish hosil qilmoqchi bo'lishgan. To'g'ri metodning dunyoga kelish sababini chet tillarni amaliy o'rganish maqsadidan qidirish joizdir. O'tgan asrning oxirlariga kelib, G'arbiy Yevropa mamlakatlari va Amerika Qo'shma Shtatlarida chet til o'qitishni isloh qilish natijasida ushbu metod kashf etilgan. Keyinchalik bu metod Osiyo, Afrika va boshqa qit'alarga ham tarqalgan.

Ona tili ishtirokisiz chet tilni o'rgatishda intilishlar to'g'ri metod, induktiv metod, kabi terminlar bilan yuritila boshlangan.

Ushbu metodlardan ko'zlanadigan asosiy maqsad chet tilni amaliy jihatdan o'rganishdir. Ona tilini o'rganish shart-sharoitlari bu metodda o'zgarishsiz qabul qilina bergen.

To'g'ri metodning zamonaviy ko'rinishlaridan ikkitasi - audiolingval va audiovizual metodlari ko'p tarqalgan. Audiolingval metodning asoschilar (mashhur Amerika metodistlari Charlz Carpenter Friz va Robert Lado) fikrlariga binoan chet til va amaliy va ta'llimiy maqsadda o'rganiladi. Til materiallaridan chet til jumllari (nutq namunalari)ni tanlash va o'rgatishga muhim o'rinn beriladi. Nutq faoliyati turlarini o'rganish tartibi quyidagicha kechadi: tinglab tushunish - gapirish- o'qish- yozuv. Og'zaki nutq chet tilda alaqa vositasi sifatida, yozma nutq esa og'zaki nutq materiali asosida o'rgatiladi.

Muallimlar audiolingval metodning bir qancha ijobiy xossalari muktab tajribasidan biladilar. Chunonchi, nutq namunalarining til o'rgatish birligi darajasida qo'llanishi, og'zki nutqning ilgarilashi, og'zaki nutq materialini o'qish va yozuvning o'rgatilishi V-VII sinflarda tegishli o'zgarishlar bilan qabul qilingan.

Adiolingual metodning ayrim qonuniyatlari bizning sharoitga to'g'ri kelmasligi muktab darsliklarida hisobga olingan. Mas. nutq namunalari ong ishtirokisiz va hech qanday qoidalar berilmasdan o'rgatilishi undagi g'ayriilmiy ko'rsatmalardir. Aktiv va passiv til materialini farqlagan holda, ularning o'zlashtirilishiga befarq qarashadi, bu ham noto'g'ri metodik yo'l yo'riqdir.

Audiolingual metoddan qator jihatlari bilan farq qiladigan audiovizual metod namoyondalari (P. Guberina, P. Rivan) metodik ko'rsatmalariga binoan leksik materialni tanlashga alohida e'tibor berilgan. Hayotiy mavzularda erkin fikr yuritish uchun 1500 so'z tanlangan. Turli texnikaviy vositalarga ta'lim jarayonida katta o'rinn beriladi. Ikkala metodning umumiyligi (to'g'ri metod tarkibiga kirishi)dan tashqari tafovutlar ham bor. Mas. audiovizual metodda og'zaki nutq, yozuv va oxirgi navbatda o'qish o'rgatiladi. O'qish yozuvdan keyin o'rgatiladi. Bizning maktablarda ushbu metodning ayrim tomonlaridan ijobiy foydalaniladi. O'rta muktabda birinchi yili

Chet til o'qitishda yozuv o'qishdan oldin, keyinchalik o'qish yozuvdan oldin vayuqori sinflarda o'qish barcha nutq faoliyati turlaridan oldin o'rgatiladi.

To'g'ri metodlardan reproduktiv (H. Palmer) va retseptiv tarzda (m.Uest) chet til o'rgatish metodlari ham metodika tarixida sezilarli iz qoldirgan.

Aralash metod. Ushbu metod ikki katta metodik yo'nalishlarning ilmiy- amaliy tomonlarini o'ziga singdirib olganligi ko'rinib turibdi. Aralash metodlar XIX asr oxiri - XX asr boshlarida tarjima va to'g'ri metodlar qorishmasi sifatida vujudga keldi. Aralash metod haqida uning namoyondalari daniyalik ruhshunos K. Flagstad, nemis tilshunosi E. Otto, nemis metodisti F. Aronshteyn, nemis tilshunosi G. Paul kabilarning ilmiy ishlaridan ma'lumotlar olish mumkin.

Aralash metodning yana bir boshqa ko'rinishi to'g'ri metod va qiyosiy metod prinsiplarining qorishmasi sifatida vujudga keldi. Ushbu zamonaviy aralash metodning namoyondalari metodistlar amerikalik P. Hegbolt, belgiyalik F.Klosse, germaniyalik A. Bolen va rus chet til o'qitish ruhshunosi B. V. Belyayev tadqiqotlaridan ma'lum va mashhurdir.

Aralash metodning har ikkala yo'nalishi ham o'zining maxsus prinsiplariga ega emas, muayyan metodga ko'proq yon bosishi, shu bilan birga ikki metod qonun qoidalarini omuxta tarzda qo'llanishi ularga xos xususiyatlardandir.

Qiyosiy metod. Uning to'liq nomi "ongli- qiyosiy metod" deyiladi. Bu metodning asoschisi akad. L.V. Sherba bo'lib, metodni hozirgi davr chet til o'qitish jarayoniga moslashtirilgan, metod asoschisi ishini samarali davom ettirgan Pedagogika fanlari akademiyasi muxbir a'zosi prof. I.V.Raxmonov bo'lган.

Ongli-qiyosiy metod bo'yicha chet til o'rgatilganda didaktik onglilik prinsipi asosida ish ko'ra boshlashgan. Ushbu metodning qiyoslash, ona tiliga suyanib ish ko'rish, nutq faoliyati turlarini bir yo'la o'rgatish singari xususiy prinsiplari o'tgan asrning qirqinchi va elliginchi yillarida shakllanadi va keng ko'lamda amaliy qo'llanadi. Chet til o'qitishning amaliy, ta'limiy va tarbiyaviy maqsadlari ilmiy asoslab berilgan. Bu esa metodning birinchi ko'rinishi edi.

O'tgan asrning oltmishinchi yillaridan hozirgacha bo'lgan vaqt ichida ongli -qiyosiy metod zamonaviylashtirildi, uning prinsiplari yangi talablarga muvofiq tadbiq qilindi. Jumladan, qiyoslash o'quvchilarning dars paytidagi yumush tarziga emas, balki mashqlar sistemasini tuzishda metodist va muallim vakolatiga kiradigan ishdir.

Ongli -qiyosiy metodning birinchi ko'rinishida qoida asosida mashq bajarilar edi, zamonaviy ko'rinishida mashq jarayonida amaliy ruhdagi qoida umumlashtiriladi. O'quvchi qiyoslash, qoidani yodlash va aytib berish, nazariy bilimlar yig'ish bilan maxsus shug'ullanmaydi.

Grammatika - tarjima metodi. Yevropada XIX asrda fransuz va ingliz tillarini gimnaziyalarda o'qitish uchun grammatika - tarjima metodi qo'llanildi. Namuna sifatida gimnaziyalarda o'qitiladigan qadimgi grek va lotin tillari xizmat qildi.

Zamonaviy "tirik"chet tillarni "o'lik" tillar (aloqa vositasi sifatida foydalanilmaydigan va faqat yozma ravishda mavjud bo'lgan) bo'l mish lotin va grek tillarini o'qitiladigan metod asosida o'rgatilishining bir qator sabablari bor edi.

- a) O'sha davrdagi gimnaziya ta'limining maqsadi o'quvchilarning umumiyl aqliy saviyasini tarbiyalashga qaratilgan edi. Davr mutaxassislarning fikriga ko'ra aqliy - formal va tillar bilan shug'ullanish orqali amalga oshirish mumkin. O'quvchilar aqllarini til mantig'i va tizimi orqali, masalan, lotin tilini o'rganish orqali peshlashlari lozim edi. Adabiy til namunalari bu borada maqsadga eltuvchi vosita deb hisoblandi.
- b) Maktablardagi til o'rganish mashg'ulotlari, ayrim istisnolarni hisobga olmaganda, gimnaziyaga qatnaydigan o'quvchilar uchun imtiyoz hisoblanar edi. Bu imtiyozga ozchilikni tashkil qiladigan "ta'limiy elita" mavjud edi.
- c) Agar davrning zamonaviy tillari bo'l mish, birinchi navbatda, fransuz va ingliz tillari gimnaziyalarda o'quv predmeti sifatida tan olinadigan va o'quvchilarni aqliy tarbiyalashning asosiy vositasi deb hisoblanadigan bo'lsa, u holda bu tillar lotin va grek tillari bilan raqobatga kirishishlariga to'g'ri kelar edi. Ularni o'qitishdan ko'zlangan maqsad va oqitish metodikasi ham raqobatga kirgan predmetlarga yaqin bo'lishidan boshqa chora yo'q edi.

XIX asrning oxiriga kelib Germaniya yangi filologlari o'rtasida zamonaviy tillarni o'qitish qadimiy tillarni o'qitishga qaraganda o'zgacha maqsadlarni ko'zlashi va boshqa metodlar asosida o'qitilishi kerak emasmi, degan masala jiddiy ko'tarildi.

GTMning "klassik"konsepsiyasiga ko'ra o'quv guruhi bir til vakillaridan iborat bo'lisi, o'quvchilarning yoshi, bilim darajasi, bilim olishga intilishlari ham bir hil bo'lisi kerak edi. Gimnaziyadagi chet til ta'limiga xuddi shunday talab qo'yilar edi.

GTM, birinchi navbatda, chet til ta'limini isloh qilish harakati tarkibida "bevosita metod" deb nom olgan metod tarafdorlari tomonidan tanqid ostiga olindi. Ulardan biri Wilhelm Vietor edi. U GTMning zamonaviy, muomaladagi tilni o'lik til vositalari va qoidalari yordamida o'qitiladi deb tanqid qildi. Bu qoidalalar hech qachon muomaladagi tilni o'qitishga to'g'ri kelmaydi deb hisobladи.

Til grammatikasini hech qachon bir vaqlar grammatiklar yaratgan va g'azal va sher qonuniyatları kabi o'zgartirib bo'lmaydigan, qotib qolgan qoidalarga bo'ysindirish mumkin emas, aksincha, grammatika ham jamiyatda bo'lgani kabi, ya'ni nima kecha dolzarb bo'lsa, bugun unitiladi, nima bugun to'g'ri bo'lsa, ertaga noto'g'ri bo'lisi ham mumkin degan qoidaga amal qiladi. (Vitor, 1882; Huller, 1979, 12 dan keltirildi)

Gustav Tanger yuqoridagi tanqidga nisbatan quyidagicha qarshi fikr bildiradi: grammatik qoidalarni mustaqil ishlab chiqish bola ongi uchun ortiqcha yuk hisoblanadi. O'quvchilar doim o'qituvchidan yordam olgan holda unga suyanib ish ko'rishi kerak, aks holda o'qituvchining boshlovchilik roli qayerda qoladi? O'quvchilar ta'lim olishning bunday turiga faqat shoshma-shosharlik bilan va asoslanmagan hulosa chiqarishga o'rganib qoladilar.

GTM amalda qo'llaydigan mavhum grammatik qoidalarni o'quvchilar tomonidan yod olish birmuncha osondek tuyuladi. Qoidalalar konkret bo'lib, ular o'quvchilarga tildan amalda foydalana olish uchun asos yaratadi.

Bir so'z bilan aytganda, o'quvchi uchun o'rganayotgan sohasidagi u ega bo'lgan avvalgi tushunarilik va o'ziga ishonch hissiyoti analitik metod bilan o'qitilganda, hech

bo'limganda ta'limning boshlang'ich bosqichida, mavjud bo'lmaydi.
(Tanger, 1888, Huller, 1979, 53 dan keltiridi)

Bevosita metod. Bevosita metod bunyodga kelishi "til ta'limini qayta qurish kerak yoki "qachongacha???" sarlavhasi bilan 1882 yilda elon qilingan kitobchadan boshlangan.(Raith,1967, 37 dan ketirildi) Kitobcha muallifi Marburg universiteti professori Vilhelm Vietor edi.

Vietor birinchi navbatda yangi tillarni o'qitish jarayonida yozma nutq va grammatikaga qarshi turdi. Unig fikricha GTMning qotib qolgan, o'zgarmas qoidalari hech qachon doimiy rivojlanishda bo'lgan tillarni o'rgatish uchun yaramaydi. O'quvchi grammatikani va juda katta so'z boyligini myyasiga joylab olgan taqdirda ham tilni o'rganib olgan hisoblanmaydi. "Til harflardan emas, balki tovushlardan iborat", men bu mashxur tilshunos Sayci so'zlari bilan aytaman..... Va ularni (tovushlarni) o'quvchining ongiga to'la singdirmasdan turib hech qachon til bilan mashg'ul bo'lishga hojat yo'q". (Vitor, 1882. Huller, 1979, 12 dan keltirildi)

Dars jorayonida asosiy e'tibor og'zaki nutqni zo'r berib egallahsga qaratilishi lozim. Shuning uchun talaffuzni o'rgatishga alohida diqqat qilinishi kerak. Fonetik bilim va fonetik yozuv (transkripsiya) dars jarayonida bir-biri bilan bog'lanishi kerak. So'ngra Vietor bir -biri bilan ma'no jihatdan bog'lanmagan so'zlarni so'zlar ro'thatidan yod olishni tanqid ostiga oldi va ularning jumlalar tarkibida taqdim qilinishini talab qildi. Lug'at tuzish maqsadlarini hisobga olmagadanda har qanday til so'zlardan emas, balki jumalardan tashkil topadi. Hech qachon biron- bir Chet til gapisishni shu tildagi so'zlar ro'yhatini tuzib, ularni yod olish yo'lli bilan o'rganib bo'lmaydi. Hamma grammatik qoidalarni bilgan taqdirda, yonma-yon turgan so'zlarni va berilgan javobni tushunish bilan cheklanadi. (Vitor, 1882, Huller, 1979, 12 dan keltirildi).

Vietor va uning tarafdarlari an'anaviy grammatika metodini rad qilish bilan "yangi tillarni o'rgatish borasida isloh harakatining boshlanishiga turtki berdilar va bu harakat tezda ko'plab ilmiy chiqishlar orqali butun Germaniyaga yoyilib ketdi" (Kahl, 1962, 34-35dan keltirildi).

Bu usulga ko'ra chet tillarni egallash huddi ona tilini o'rganish kabi amalga oshirilishi kerak. Bola ona tilini qanday yo'l bilan o'rgangan bo'lsa, Chet tilni ham shunday o'rganishi lozim.

Shu munosabat bilan tini :tabiiy o'rganish" tushunchasi vujudga keladi, bu o'quvchilarga tilni tabiiy sharoitda o'rgatishni ko'zda tutadi. Shunday qilib dars jarayonida kundalik muomila tili o'rgatila boshlandi. Endi o'quvchilarga katta badiiy asarlarni o'qish va tarjima qilishni o'rgatish o'niga kundalik muomila jarayonida fikr almasha olishni o'rgatila boshlandi. Kichik yoshdagi bola gapirishni qanday o'rgangan bo'lsa, Chet tildagi birinchi so'z va gaplar ham shunday o'rganilishi, ya'ni bevosita o'quvchining hayotiy muhitidan masalan, oila yoki maktab sharoitidan olinishi kerak edi.

Assotsiatsiya metodi. Chet til tizimi o'quvchini tili o'rganilayotgan xalq fikriy va hissiy dunyosiga hamda hayotiy muhitiga olib kirishi lozim edi. Chet tilni o'rganish ona tili tizimida mutlaqo ajralgan holda assotsiativ metod asosida amalga oshirildi. Ma'lum tushuncha va tovushlar ifodalari ma'lum mazmun bilan mustahkam bog'landi.

Assotsiyatsiya metodi psixologiya fanidan o'zlashtirib olindi. Bevosita metod tarafdori va ijodkori Svit assotsiyatsiya tushunchasining ahamyatini quyudagicha ta'riflaydi: tilni amaliy o'rganishning psixologik asisini assotsiyatsiya qonuniyati tashkil qiladi. Butun til o'rganish jarayoni assotsiatsion bog'lanishlardan iborat. Biz ona tilini o'rganish jarayonida so'zlar va gaplarni fikrlar, g'oyalar, faoliyatlar, voqealar bilan bog'laymiz. (Stern, 1984, 317 dan keltirildi)

Birtillilik. Assotsiyatsiya jarayonida ona tilini chetlab o'tgan holda chet tilda fikrlashdan iborat bo'lishi kerak. Fikriy tasavvur, juziy tushunchalar bir yo'nalishga qaratilishi lozim. Xullas, ona tili chet til darsidan iloji boricha chiqarib tashlanishi kekak. Bevosita metodning maqsad va usullari an'anaviy grammatika -tarjima metodining maqsad va usullaridan butunlay farq qilishi tayin edi.

Audiolingual metod. Audiolingual tushunchasi lotin so'zlaridan tashkil topgan, birinchisi, audiere-tinglash, ikkinchisi lingua-til, nuqt tushunchalarini anglatadi. Agar

"Audiolingual metod" atamasi so'zma-so'z tarjima qilinsa "tinglash gapisish metodi" ya'ni tilni tinglash- gapisish yo'li bilan o'rghanish ma'nosini anglatadi.

XIX asr oxirida isloh harakati tarkibida ALM dan avval bevosita metod vujudga keldi. Mazkur metod asosida katta yoshdagi kishilar o'qitildi va amaliyotda Berlits metodi deb nomlanuvchi metoddan foydalanildi. Bu metod birinchi jahon urushidan so'ng yuqori sinflarda zamonaviy tillarni o'qitish maqsadida o'quv rejalarini kiritildi. Bu bilan ham amaliy, ham pedagogik maqsadga erishildi.

Zamonaviy tillar xalqaro aloqa vositasiga aylana boshladi.O'quvchi daes jarayonida chet tilni doimo qo'llashi tufayli va o'qituvchiga taqlid qilish yoli bilan o'zida tilni his qilish qobiliyatini tarbiyalab bordi va chet til qununiyatlarini asta sekin induktiv yo'l bilan hosil qildi. Shu asnoda Amerika Qo'shma Shtatlarida audiolingval metod vujudga keldi. Buning quyidagi hayotiy asoslari mavjud edi: Ikkinchi jahon urushi tugagandan so'ng chet tillarni, ayniqsa, ekzistik tillar hisoblanmish yopon, xitoy va boshqa tillarni biladigan mutahassislarini yetishmasligi yaqqol sezilib qoldi. Shuning uchun harbiylarning 1941-43- yillardagi buyurtmalari asosida ko'plab til o'qitish dasturlari ishlab chiqildi va bu yangi til o'qitish metodlarining vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Bu vazifa birinchi navbatda tilshunos olimlar zimmasiga tushdi.

Intensiv kurslar va tinglash asosida tashkil qilingan chet til kurslari orqali harbiy tarjimonlarni tayyorlash amaliyoti chet tillarni turli toifadagi o'quvchilar guruhida hozirgacha belgilangan vaqtadan ko'ra qisqaroq vaqt davomida jadal o'rghanish mumkinligini ko'rsatdi. Urushdan keyingi yillarda chet tillarni o'rghanishga bo'lgan ehtiyoj yanada kuchaydi. BMT va YUNESKO faoliyatida ingliz tili bilan bir qatorda yana boshqa tillar ham rasmiy til deb elon qilindi. Boshqa tillar milliy yoki hududiy til mavqeini oldi. Xalqaro savdo- sotiq aloqalarining kengayishi sayyohlarning ko'payishi, ilmiy va madaniy hamkorlikning ko'payishi chet tillarni o'rghanishga bo'lgan talab va talab oshishiga olib keldi, chet tillarni o'rghanish imtiyoz degan fikr yo'qoldi.

1957-yildagi "sputnik shok "voqeasi tufayli chet tillarni o'rghanish va o'rgatish sohasidagi tadqiqotlarga keng yo'l ochildi (National Defence Education Act NDEA

1957). Ta'larning yangi texnologiyalari (nutqni gramplastinkalargayozib olish, til labaratoriyalari va boshqalar) vujudga keldi.

ALMning ta'lim prinsiplari.

- Asosiy etibor yozma nutqqa emas, balki og'zaki nutqqa qaratiladi. (Avval tinglab tushunish, va gapishtish, so'ngra o'qish va yozish). Bu nutq faoliyatining turlariga oid quyidagi didaktik ketma-ketlikni belgilaydi: avval tinglash, so'ngra takrorlash avval o'qish va nihoyat yozish.
- Darsning nutq vaziyatiga bog'liqligi (stuvativligi). Grammatikaga oid namunasi kundalik hayot vaziyatiga oid materiallarda dialog shaklida taqdim qilinadi.
- Til materialining asl nusxdaligi (originalligi, til sohibi odatlariga, birinchi navbatta, uning talaffuziga taqlid qilish).
- Til namunalarini taqlid qilish va tez-tez takrorlash yo'li bilan mashq qilish (yilga oid odatlarni shakllantirish).
- Darsning birtilliligi, ona tilini dars jarayonidan chiqarib tashlash.
- Grammatika materialning sistemali ravishda chet til namunalarining kompleksliligin o'stirib borishga asoslangan o'quv dasturi taqsimoti (grammatik material taqsimotida ona tili bilan taqqoslash umuman rol o'ynamaydi).
- ALMga oid mash shakllari.
- Ko'p variantlili namuna gap mashqlari.
- Orniga qo'yish tablitsalar va ornini almashtirish mashqlari.
- Elementlarning orni bo'sh qoldirilgan matnlar va ornini toldirish mashqlari.
- Yod olish va dialoglarni sahnalashtirish mashqlari.

Audiovizual metod.

Audiovizual metod audiolingval metodning rivojlangan ko'rinishidir. "Audio - vizual" tushunchasi ikki lotin so'zining qo'shilishidan hosil bo'lgan. Lotincha audire - tinglamoq, videre - ko'rmoq. Ularni o'zbek tiliga tarjima qilinsa "tinglash- ko'rish metodi" ma'nosini anglatadi.

Amerika Qo'shma Shtatlarida audiolingval metodning rivojlanishi bilan bir davrda Fransiyada audiovizual metod shakllandi. Bu metodga AQSHda rivojlangan metod ta'sir o'tkazmadi.

Adiovizual kurs deganda chet ta'limining boshlang'ich bosqichida qo'llaniladigan Peter Guberniya tomonidan asos solingan usullar nazarda tutiladi va bu 1954-56- yillarda CREDIF(Centre de recherche et d'étude pour la diffusion du français) tomonidan birinchi marta fransuz tili kursi shaklida Voix et Images de France bo'lib amalda tadbiq qilindi. Guberinaning o'zi ushbu terminni global - struktural metod deb nomlagan. (Stract, 1937,9)

Tilni imkonni boricha ko'proq optik ko'rgazmalilik bilan bog'lash audiovizual metodning bosh prinsipi hisoblanadi. Bu shundan iboratki, o'quvchiga avval nutq vaziyati haqida vizual vositalar orqali ma'lumot beriladi va undan keyin shu vaziyatga oid ifoda shakllari beriladi. Demak, taqdimot tartibi audiolingval metodga qaraganda boshqacha tarzda o'tadi. U metodda avval til hodisalarining shakli (tinglash takrorlash) va undan keyin uni mazmuni tushuntiriladi. (Real, 1984, 33,34).

Rasmlar va rasmlar qatoridan til materiali taqdimoti jarayonida faqat ma'noni ochish uchungina emas, balki til materialini mashq qilish va amalda qo'llash jarayonida ham unumli foydalaniladi.

AVMning dars texnologiyalari

1. Dars rasm yoki rasmlar qatori (film strip) va magnit tasmadagi diolog taqdimoti bilan boshlanadi.Ko'rish va eshitish qo'zg'ovchilar (vizual va akustik stimul) birgalikda ma'no (semantik) birligini tashkil qiladi .

2. Darsning ikkinchi bosqichida suhbat birliklari, ma'noni aniqlash, qayta eshittirish, savol-javoblar orqali tushuntiriladi.
3. Uchinchi bosqichda rasm va matnlarning ko'p marta takrorlash yo'li bilan dialoglar yod olinadi.
4. Mazkur bosqichda o'quvchilar asta-sekin vizuval-akustik tayanchlardan uzoqlashtiriladi. Ulardan rasmga o'z dialoglarini tuzish yoki sahna ko'rinishiga oid rollarni ijro etish talab qilinadi.
5. Har bir darsda dialogda berilgan grmmatik hodisalarga oid namuna gap mashqlari (pattern drills) bajariladi.
6. Yozish vao'qish malakalariga e'tibor kurs yakuniga borib kuchaytiriladi.

Darsning bu asosda tashkil qilinishi bixerioristik ta'lif qonuniyatlariga xos hisoblandi. Ta'lif jarayoni stimul (rasm) va reaksiya (tilga oid ifoda) qonuniyati asosida tashkil qilinadi.

AVMda metoddasi rasm va ovoz birgalikda ko'pincha rasm va rasmlar qatori (diaprayektor) va magnetafondagi (til laboratoriyasidagi) og'zaki matn qoshib qo'llanadi. Audiolingval va Audiovizual metodlarga hos bo'lgan usullarni qiyoslash ularni yaqqolroqtasavvur qilish imkonini beradi.

AVMning ALMdan farqilanuvchi asosiy hususiyati akustik va vizual materialning barobar qo'llanishadadir. Bu dialog ustida ishlash jarayonida ham katta ta'sir o'tkazadi.

Asliy nutq vaziyatlari (orginal sruatsiya) ma'noni ochish, xotiraning vivual tayanchi, nutq vaziyatiga xos mashqlar tildan amalda foydalanishda mamlakatshunoslikka oid ko'rgazmalarini qo'llash taniqli metodist Volter (1963,63) tomonidan AVMning o'ziga xos xususiyati deb topildi.

AVM tanqidi

Audiovizual metodning ko'pgina prinsiplari chet til o'qitish jarayonida o'zgartirib yuborildi. Audiovizual yoki global-struktural metodning "sofliji" faqat Fransiyadagina saqlanib qolindi.

Tanqidchilar quyidagilarni bu metodga xos bo'lgan kamchiliklardan deb hisoblaydilar. Furges, 1975: Vielau 1976).

- O'quvchilarning istiqbolli aqliy va amaliy faoliyati retseptiv va reproduktiv nutqiy ta'limi harakatlarni talab qilish tufayli o'qituvchi tomonidan bo'g'ib qo'yildi.
- Chet til ta'limi jarayoni bixevoirizm yo'nalishga (xulq psixologiyasi orqali tilga xos bo'lgan odatlarni shakllantirish va tarbiyalashga)qaratildi (moslashtirildi).
- Dars va uning bosqichlarini bir qolipga solib qo'yilgan o'zgarmas sxemada tashkil qilindi.
- O'qituvchiga texnika vositalari mutaxassis roli berildi, natijada uning pedagogik imkoniyatlari cheklab qo'yildi.
- Ta'lim jarayonida, bir tomondan, asosiy e'tibor og'zaki nutqqa qaratildi, nutqning situativligi va originalligiga bo'lgan talab kuchaytirildi, ikkinchi tomondan, tilning shakl xususiyatlari hamda taqsimotidagi tartibni saqlab qolishga bo'lgan talablar qo'yildi. Bu holat ma'lum qrama -qarshiliklarni keltirib chiqaradi.
- O'quv materiali taqsimotida, darsni rejorashtirish va tashkil qilishda ona tili butunlay hisobga olinmadni.

Bilvosita metod

Amaliyotda shunday holatni kuzatish mumkinki, unda o'qituvchi "yangi metod"ni yaxshi ishlata olmaydi, Chet til ta'limi jarayonida bu metod usullaridan foydalanib, samara va muvaffaqiyatga erisha olmaydi, natijada u yangi metodning ayrim prinsiplarigina qo'llash bilan cheklanib qoladi . Shunday bo'lishi ham mumkinki, yangi metod ayrim olingan bir guruh ehtiyojlari va imkoniyatlari uchun yaratiladi va shu guruhlarda muvaffaqiyat bilan qo'llaniladi.

Agar bu metod boshqa ehtiyoj va mo'ljal bilan tashkil qilingan guruhlarda qo'llanilsa, yaxshi natija bermaydi. Bunday holatga uni o'zgartirish va jarayonga moslashtirishga tog'ri keladi.

Uzoq vaqt mobaynida, agar chet tillarni o'rganish jarayoni intensiv va ilmiy jihatdan yetarli darajada tadqiq qilinsa hamma kishilar uchun foydalanish qulay bo'lgan "yangi metod"ning yaratilganligi haqida so'z yuritish mumkin, deb ishonib kelingan edi.

Ilmiy asoslanganva universal xarakterga ega bo'lgan ta'lismi metodi nihoyat audiovizual metod bo'lib dunyoga keldi.(Lado 1964)

Kommunikativ va madanyatlararo chet til ta'limi metodlari haqida baxs yuritilganda yana yuqoridagi masalaga qaytiladi, chunki chet til o'qitish didaktikasi va metodikasida audiovizual metodning hal qiluvchi rol o'ynaganligi ma'lum. Munozarada shu narsa ayon bo'ldiki, o'rganish va o'rgatish tushunchalarini bir biridan farqlash muhim ahamyatga ega.

Inson xotirasi shunday tuzilganki, hamma kishiarda ilm olish jarayoni bir xil tarzda kechadi (ya'ni, idrok qilish, esda saqlash, o'quv materialini o'zgartirish), garchi biz haqda ko'p narsa bilmasakda, chet tillarni barcha kihilar yaxshi o'rganib olishlari mumkin bo'lgan ta'lismi metodlarini yaratish, umuman olganda, mumkin va arzirli ekanligiga shubhalanmasa ham bo'ladi.

Grammatika-tarjima metodi va Audiolingva metodlarning elementlari va prinsiplaribirlashib, chet til ta'lismi tarixiga Bilvosita metod bo'lib kirgan metod misolida oydinlik kiritmoqchimiz.

1955-yilda D.Schulz va H. Griesbachlarning nemis tilini chet til sifatida o'qitish borasida tezda bosh rolni egallab olgan va bugungi kunga qadar o'z qadrini to'qotmay, amaliyotda keng tarqalgan "Nemis tili chet elliklar uchun" nomli darsligi paydo bo'ldi .

"Nemis tili chet elliklar uchun " kitobi mutaxassislikka oid adabiyotlarda Grammatika-tarjima metodi asosida yaratilgan darslik sifatida keltiriladi (Funk va Konik 1991)

Buning sabablari:

- Darslikda Grammatika - tarjima metodning muhim elementlari oldingi qatordan o'rin olganligi yaqqol ko'rinish turibdi. Bunga grammatikaga alohida o'rin berilganligi yoqqol misol bo'la oladi. Grammatika (grammatik tana) o'quv materiali taqsimoti va darslar tuzilishini belgilaydi.
- Nemis tilini tabiiy sharoitda o'rganish bo'yicha GTM sohasida bunday keng tarqalgan darslik hali mavjud emas.

II.2.Chet til o'qitishning jarayon metodlar

"Metod" terminini ifodalaydigan birinchi tushuncha - chet til o'qitish metodikasi tarixiy yo'nalish (tarjima, to'g'ri, aralash, qiyosiy metodlar)ning muxtasar bayoni yuqorida keltirildi. Ikkinchi ma'nodagi (o'qitish sistemasi- Palmer, Uest, Guen metodlari) tushuncha chet til o'qitish metodikasi tarixida yoritiladi. Muallim/'quvchi faoliyati usuli ma'nosidagi "metod" terminining uchinchi jihatni quyida muhokama qilinadi.

Chet til o'qitish jarayonida amaliy foydalaniladigan metodlar uchta: tanishish, mashq qilish va qo'llash. Ushbu uch termin metodik tadqiqotlarda turli nomlar bilan yuritib kelindi. Ko'pchilik tan olgan va o'qitishda bevosita mushohada qilish mumkin bo'lgan mazkur metodlar o'quvchi nuqtai nazaridan nomlangan. O'quvchining chet til o'rganishdagi vazifasi o'quv materiali (ya'ni til materiali bilan tanishish, ko'nikma va malaka hosil qilish maqsadida mashq qilish hamda o'z fikrini bayon etish chog'ida, ya'ni nutqiy muloqotda tildan foydalanishdan iborat.

Chet til o'qitish sistema, deb qaralganda, unda ikki tomon- o'rgatuvchi va o'rganuvchi ishtirok etadi. Muallim zimmasiga o'quvchining o'rganish faoliyatini tashkil etish-*tashkiliy vazifa* yuklanadi. O'quvchi bajaradigan uchchala ishni - tanishish, mashq qilish, qo'llashni muallim tashkil qiladi. Darsdan tashqari mustaqil bajariladigan ishlarga oid ko'nikma va malakalar hosil qilish ham muallimning tashkiliy vazifasiga kiradi.

Muallimning navbatdagi vazifasi *ta'lif- tarbiya berishdir*. Ta'limiyl vazifa deganda tushuntirib yoki ko'rsatib berish, bayon etish, izohlash, to'g'rakash orqali o'quvchiga til materialini o'rgatish anglanadi. Chet til materialini muallim o'rgatadi yoki darslik/magnitafon yozuvidan o'rganish yo'lini ko'rsatadi, o'quvchida qiyinchilik sezilsa, murakkab til hodisasi lo'nda qilib sharhlab beradi.

Nazorat qilish muallim vazifalaridan uchinchisidir. O'quvchilar yangi material bilan tanishayotgan paytlarda ularning tushunganlik darajasini aniqlaydi. To'g'ri - noto'g'ri mashq bajarayotganini kuzatadi. Til materialini qo'llash chog'ida nutq faoliyatining

bajarishini nazorat qiladi. Mas. ovoz chiqarmay o'qilgan matnning mazmunini tushunish uchun o'quvchilar undagi leksik birliklarlarni o'zlashtirgan bo'lislari kerak. Agar o'quvchi materialni esdan chiqargan bo'lsa, muallim o'sha leksik materialni takrorlashni mashq qiladi.

O'quvchilar vazifalarni tanishish, mashq qilish va qo'llash metodlari orqali amalga oshirish mumkinligi yuqorida qayd etildi. Har bir metodning o'ziga xos xusisiyatlaribor.

Taninish o'quv materialini o'rganishda birinchi qadamdir. Til birligini o'rganishga kirishar ekan, o'quvchi uning shakli (tovush tomonini og'zaki nitqda aniq-ravshan eshitish yoki grafik timsolni yozma matndan ko'rib o'qiy olish), ma'nosi (predmet, hodisa, harakat bilan fikran bog'lash) va qo'llanishi (boshqa birliklar bilan qo'shilishi, qanday holatda ishlatalishi) bilan tanishadi. Shakl, ma'no va qo'llanish har bir leksik yoki grammatik birlikda o'rganiladigan uch tomondir. Ular bilan tanishish o'quv birligini o'zlashtirishning boshlanishi demakdir.

Ushbu birlik xotirada saqlanishining asosiy shartlaridan biri uni eshitish va ko'rish sezgilari yordamida idrok qilishdir. Shu paytda til birligi mashq qilish bosqichidan o'tadi.

Mashq qilish yo'li o'rganilayotgan til hodisalari mustahkamlanadi, ularga oid dinamik stereotip shakllanadi. Ushbi dinamik stereotip nutq jarayonida operatsiya maqomida ishga tushadi.

Amaliy muloqot maqsadida til materialini qo'llash uchinchi bosqich hisoblanadi. Qo'llash davrida axborot almashish (ya'ni malaka hosil qilish) mashqlari bajariladi. Oquvchilarning tanishish, mashq qilish va qo'llash vazifalari metodika tilida o'qitish metodlari, deb yuritiladi. Ular "o'qitish jarayonida qo'llanadigan metodlar" nomi bilan ham ataladi. Bu metodlar ta'lim maqsadlarini ro'yobga chiqarish vositalari bo'lishi bilan birga, ularga o'quv materialini o'zlashtirish bosqichlari tarzida ham qarash mumkin.

"Tanishish" metodidan foydalanish mobaynida so'z, so'z birikmasi, grammatik hodisa, matn kabilar o'rganiladi. Ularni o'quvchi eshitishi, ko'rinishi, birvarakay eshitib ko'rishi mumkin. Idrok etganda ularni sezgilari orqali payqash va mazmunini o'qib olishdek bir yo'la ikki tomonlama ish bajariladi. Muallim esa narsa/ hodisani ko'rsatib, chet tilda, mas. nemischa aytadi. Ayrim sodda tushunturish - izoh berish ham muallim vazifasiga kiradi. Predmet yoki hodisani ko'rsatishda rasmlar, flanegraf, magnit taxtasi kabilar keng qo'llanadi. Texnika vositalarining ovozli, namoyish etadigan, ko'rsatib ovoz eshittiradigan turlaridan samarali foydalanish mumkin.

O'quv materiali bilan tanishish davrida mashq qilish bosqichiga tayyorgarlik ko'rildi. Mashq qilishda mashqlar miqdori va sifatiga, ya'ni nechta va qanday mashq bajarish masalasiga alohida e'tibor beriladi. Mashq qilish chog'ida o'quvchi o'zlashtirayotgan ko'nikma muallim nazorat ostida bo'ladi. Nazorat qilishning eng tejamli usuli test o'tkazishdir.

O'quvchining o'zini o'zi nazorat qilish va xatolarini mustaqil bartaraf etishgabo'rgatish katta ahamyatga molik.

Malakalar hosil qilishning hal qiluvchi bosqichi o'quv materialini qo'llash hisoblanadi. O'quvchilarning og'zaki va yovma fikr almashishlari jarayonida qo'llash metod qo'l keladi. Oldin o'rganiladigan material endiaxborot yetkazish/ olish maqsadida bo'yysundiriladi.

Metodlar faoliyat ko'rsatkichi, o'z navbatida, metodik harakatlar (usullar) orqali amaliyotda ishlataladi. Mas. leksikaning ma'nosini tarjimasiz ochish usuli (harakati), matndan axborot olish usuli, grammatik birlikni leksik o'rgatish usuli (qoida bermasdan yaxlit hodisa tarzida), talaffuzni taqlid yo'li bilan o'rgatish va hakazo. Aniq usullar majmuasini jarayon metodini tashkil etadi. Metodik usul o'quv materialini o'rgatish/o'rganishda yaqqol ko'rinish turadigan amallarni bildiradi.

Metodik adabiyotlarda metodlarni "namoyish etish, tushuntirish va mashq" nomlari bilan berish yoki metodlar miqdorini yettigacha yetkazish hollari uchraydi. Qanday

nomlar yoki ular nechta bo'lishidan qat'i nazar, metodlar tanishtirish, ko'nikma hosil qilish va malaka berishga yo'naltiriladi.

Suhbat. Ta'lif -tarbiya jarayonini yaxshilash yoki yaratilgan ilmiy farazlarning qanchalik to'g'ri ekanligini aniqlash maqsadidasuhbat metodidan foydalilanildi. Odatda, suhbat metodi maktab o'qituvchilar va o'quvchilar jamoasi bilan, ota va ona va keng jamoatchilik bilan yakka va guruhli tartibda ish olib borilganda qollaniladi. Bunda suhbat metodini tadbiq etishdan oldin maqsadli reja tuziladi, amalga oshirish yo'llari belgianadi, natijalar tahlil qilinadi va tegishli xulosa chiqariladi. Shuningdek, tadqiqotchining suhbat olib borish va uni kerakli tomonga yo'naltira olishni ilishi suhbatdoshning ruhiy holatiga qarab suhbat ohanggiga moslashtira bilishi g'oyat muhimdir.

Bunda:

- 1) suhbat uchun oldindan savol tuzish;
- 2) vaqtি vao'tkazish joyini aniqlash;
- 3) suhbat ishtirokchilarining soni va kasblaridan xabardor bo'lishi;
- 4)suhbat uchun qulay sharoit va erkin gaplashish imkonini yaratish;
- 5) mahmadona va bachkana bo'lmaslik;
- 6) suhbatdoshning kimligini, harakter xususiyatini esdan chiqarmaslik;
- 7) suhbat natijalarini zudlik bilan tahlil qilish, qiyoslash, tegishli xulosa chiqarish, lozim bo'lsa qo'shimchalar kiritish va maktab hayoiga tadbiq etish pedagogik jihatdan qimmatlidir.

II. 3. Chet til o'qitish usullari.

Metodik usul yanada kichik tushuncha bo'lib, "yangi so'zning ma'nosini ochish usullari", "til materialini o'rgatish usullari" singari birikmalar uchraydi.

INTERFAOL USULLAR

- „Interfaol, -ingillizcha so'z bo'lib, „interact,: “inter” – „o'zaro,, va ”act” – „harakat qilmoq,, ularni umumlashtirganda esa, „interfaol,-„o'zaro harakat qilmoq,, ma'nosini anglatadi.
- Ineraction - hamkorlikni (boshqalar bilan) bildiradi.

O'zaro harakat turlari; o'qituvchi-talaba (yoki o'quvchi); talaba (yoki o'quvchi): talaba (yoki o'quvchi); o'qituvchi-talaba (yoki o'quvchi) lar; talaba (yoki o'quvchi) – talaba (yoki o'quvchi)lar; talaba(yoki o'quvchi)lar-o'qituvchi.

O'qitishning interfaol usullari

1. *Kognitiv* (cognito-lotincha so'z bo'lib <<bilim>>, <<bilish>> ma'nosini anglatadi)- eng avvalo, talaba (yoki o'quvchi) larning tafakkurini shakllantirishga yo'naltirilgan, u yoki bu shaklda jamoa muhokamasini tashkil etish bilan bog'liq bo'lgan usuldir .

2. *Eksperimental* talaba (yoki o'quvchi)larning <<jonli>>, shahsiy tajriba orttirishlariga yo'naltirilgan

3. *Rolli o'yinlar, Modellashtirish* hayotiy vaziyatlarni modellashtirish hamda ma'lum rollarni ijro etish orqali ularni sinab ko'rishga yo'naltirilgan (usul jamoa tafakkuri, muhokama bilan bog'liq, ammo muhokama rolli o'yin tahlili asosida olib boriladi

4. *Fasilitasiya* (inglizcha facilitate - osonlashtirish) –guruhanishini tashkil etish, ko'pincha aniq, haqiqiy, amaliy topshiriqlar bilan bog'liq aniq qaror qabul qilish bo'yicha muhokama faoliyatning haqiqiy rejasini ishlab chiqish,

Haqiqiy, mojarolarni manfaatlarni muvofiqlashtirishga mo'ljallangan.

QABUL QILISH VOSITALARI (KANALLARI)

- Qabul qilishning eng muhim filtrlaridan biri
- Ko'rish, eshitish, xis-tuyg'udir.

Vizual - ko'rish orqali qabul qilinadigan axborot (obrazlar, rasm, film).

Auditiv - eshitish orqali qabul qilinadigan axborot (nutq, shamolning xushtagi, tomchilayotgan suv, oxang, tembr, ovoz balandligi).

Kinestetik (grekcha-kines-harakat) - xis qilish orqali qabul qilinadigan axborot (xid, tam).

Aqliy hujum

Bevosita jamoa bo'lib fikrlar xujumini olib borish. Bu usuldan maqsad mumkin qadar katta miqdordagi g'oyalarni yig'ish, talaba (yoki o'quvchi) larni ayni bir xil fikrlashdan xoli qilish, ijodiy vazifalarni yechish jarayonida dastlab paydo bo'lgan fikrlarni yengishdir.

BREYNSTORMING

Bu atama inglizcha so'z bo'lib, ikki tushunchadan iborat: brain- miya, storming – xujum, bo'ron, kattiq hayajon. Usulning < Miyani hayajonga solish> deb yuritilishi, uning asl mohiyatini ochib beradi, lekin bazida uni <Jamoaviy ijodiy fikrlash> deb ham tushunsa bo'ladi. Rus tilida usul <mozgovaya ataka>, o'zbek tilida esa <Aqliy xujum> yoki <Fikrlar xujumi> deyilishi, uning asl mohiyatini saqlashga yordam beradi.

Bu usul 15 kishidan ortiq bo'limgan guruhlarda o'tkaziladi. Asosiy tamoiyil: erkin muloqot-munozara jarayonida berilgan mavzu asosida yangi novatorlik g'oya, fikrlar to'planadi. Aytilgan g'oya, fikrlarning sifatiga emas ularning qanchalik ko'pligiga etibor qaratiladi.

Aytilgan g'oya, fikrlar muhokama ham, tanqid ham qilinmaydi. Munozara erkin va o'zaro samimiy munosabat xolatida o'tkaziladi. To'plangan g'oya, fikrlar asosida mavzu bo'yicha umumiy fikr shakllantiriladi. Aytilgan g'oya, fikrlarning sifati va ular

asosida tuzilgan umumiyligini g'oya, fikrlarning qaydarajada muximligi, muammo yoki mavzu bilan yaxshi tanish bo'lgan muaxassis-ekspertlar tomonidan baxolanadi.

Ushbu jarayonda o'qituvchining asosiy vazifasi - imkon boricha har bir aytilgan g'oya, fikrni to'plab borishdan.

BREYNRAYTING

Ushbu usulning qo'llanishi breynstorming usuliga o'xhash bo'lib, faqat unda barcha g'oya, fikrlar yozma bayon etiladi. Bu esa, o'z g'oya va fikrlarini og'aki bayon etishga uyaladigan yoki qiynaladigan ba'zi tinglovchilar uchun qulaylik yaratadi. Talaba (yoki o'quvchi)lar tomonidan yozilgan fikralar, g'oyalarning imloviy va usuliy xatolariga e'tibor qaratilmaydi hamda yozilgan fikrlar oralarida keyinchalik hayolga kelgan fikrlarni yozish uchun bo'sh joylar ham qoldiriladi.

Talaba (yoki o'quvchi)lar o'z fikrlarini erkin, tanqid qilmasdan ifoda etishga chaqiradilar. G'oyalar tahlili keyinroq o'tkaziladi. Bu usuldan foydalanganda, muammoni yechish variantlari imkon qadar ortadi.

„TARMOQLAR“ (KLASTER) USULI

Fikrlashning tarmoqlanishi –pedagogik strategiya bo'lib, u talaba (yoki o'quvchi)larning biron-bir mavzuni chuqur o'rganishlariga yordam berib ularni mavzuga taalluqli tushuncha yoki aniq fikrlarni erkin va ochiq uzviy bog'lagan ketma-ketlikda tarmoqlashni o'rgatadi.

Fikrlarni tarmoqlash quyidagicha tarmoqlanadi:

1. Hayolga kelgan har qanday fikr bir so'z bilan ifoda etilib ketma-ket yoziladi.
2. Fikrlar tugaguncha, yozishda davom etiladi va fikrlar tugasa u holda yangi fikr kelgunga qadar biron rasm chizilib turiladi.
3. Darsda imkon boricha fikrlarning va o'zaro bog'liqlik ketma-ketligini ko'paytirishga harakat qilinishi lozim.

SWOT- tahlil

S - *strength* - *kuch*

W - *weariness* - *ojizlik*

O - *opportunity* - *imkoniyat*

T - *thereat* - *tahdid*

Kuchli tomonlari- hal etilayotgan vazifaning afzalliklari;

Kuchsiz tomonlari-maqsadga erishishda ichki muhim omillarning ta'siri;

Imkoniyat-belgilangan vazifalarni hal etishdagi eng ma'qul holat;

Tahdid-faoliyatni amalga oshirishga to'sqinlik qiluvchu tashqi muhit omillari.

Bahs-munozara(discussion method)- usulida guruh a'zolari biron muammoni yechish (yoki bilimlarini oshirish yoki mavzuni tushunish) maqsadida o'z g'oyalarini og'zaki taklif etadilar.Usuldan samarali foydalanish uchun ishtirokchilar muhokama predmetiga oid yetarli bilim va tajribaga ega bo'lislari lozim.Bu usul kattalar ta'limida ko'proq samara beradi.

,,MUZYORAR“ O'YINI

(qizdiruvchi, faoliyatga jalb qiluvchi mashq) – talaba (yoki o'quvchi)larning o'zaro tanishishi va ishchi muhit yaratish maqsadida qo'llanadigan mashq.

Mashqning vazifasi - talaba (yoki o'quvchi)larni muloqotga chorlash (,,muzni yorish“).

Bu o'yin-o'quv honasidagi ruhiy taranglikni yengish, guruhning shakllanish jarayonini tezlatish, muloqot va axborot almashinuvini yo'lga qo'yish, shuningdek, samimiylilik va hamkorlik muhitini yaratishga yordam berishdir.

„Muzyorar“ barcha ishtirokchilarni jarayonga muvaffaqiyatli jalb qiladi va treningni umumiyo'nalishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

IMEN (ARIZ) –IMEN (TRIZ) usuli

- IMEN (TRIZ) – ixtiro masalalarni yechish nazariyasi;
- IMEA (ARIZ) ixtiro masalalarni yechish algoritmi;
- ISHRN (TRTL) –ijodiy shaxsni rivojlantirish nazariyasi;
- ITR (RTV) – ijodiy tasavvurni rivojlantirish.

Ilmiy ijodkorlik texnologiyasini yaratish ustida 1946 yildan e'tiboran ish boshlangan. Bu yangi texnologiya TRIZ (teoriya resheniya izobretatelskix zadach) deb nomlangan. TRIZ haqidagi birinchi ma'lumot matbuotda 1956 yilda paydo bo'lgan.

1926 yili Toshkent shahrida tug'ilgan Genrix Saulovich Altshuller 1958 yili TRIZni o'rgatish bo'yicha birinchi o'quv seminarini o'tkazgan va ushbu o'quv seminarida G. Altshuller tomonidan ilk bor IOK (IKR –idealniy konechniy rezultat) tushunchasiga ta'rif berilgan.

IMEN-ishlab chiqarishni, yangi texnik fikrlarni aniq fanga aylantiradi, ixtiroli masalalalarni yechishga yordam beradi. IMEN-talimda eskiliklardan voz kechishdi. IMEN elementlarni faqat tehnik sohalarda emas, balki talim-tarbiya, shuningdek, boshqa sohalarida ham ishlatilishi mumkin.

Xayotdagi va tabiatdagi har bir predmet, har bir modda, hodisa, voqeа, obyektda ikkilamchilik siri qarama-qarshilik mavjudligi talaba(yoki o'quvchi) larni har bir narsaning nimasidir yaxshi yo nimasidir yomon, bir tomonidan foydali ikkinchi tomonidan zararli, bir jihatdan halal bersa ikkinchi jihatdan zarur ekanligiga qiziqish uyg'otadi va uni topishga undaydi. Bu bilan o'zlashtirilishi qiyin bo'lgan ayrim materiallarni IMEN elementlari orqali osonlik bilan o'zlashtira olish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

„Zigzag” usuli 1980-1990 yillardan boshlab paydo bo’lgan. Bu usulning boshqa usullardan farqi shundaki, ishtirokchilar mayda guruhlarga ajratiladilar va talaba (yoki o’quvchi) lar raqamlanadilar, spiker (boshliq) saylanadi, so’ngra bir xil raqamlar bir-birini topshiriq „topadilar. Topshiriq beriladi va u o’zlashtirgach, tarqalishadilar. Har bir azo o’zi o’zlashtirgan materialni eski sheriklarga aytib beradi. Savol-javobda esa guruh baholanadi. Har bir raqamlanganlar yangi va har xil topshiriqlar olganini hisobga olsak, har bir talaba (yoki o’quvchi) o’z guruhi manfaati uchun ham berilgan topshiriqni bilishi kerak va bilishga majbur! Chunki, u o’z guruhiga qaytganda, o’rgangan mavzu bo’yicuha savol-javobda guruhi nomidan qatnashishi kerak. 4 ta guruh bo’lsa, 1,2,3,4 va 3 ta guruh bo’lsa 1,2,3 kabi va xokazo raqamlanadilar.

YUMALOQLANGAN QOR

Bu usul har qanday tushunchaga mumkin qadar aniqroq tarif topishga imkon beradi, talaba (yoki o’quvchi) larga guruhlarda ishslashni boshqalar fikriga qulog solishni va umumiyluq nuqtayi nazarni ishlab chiqarishni o’rgatadi.

Bu usul bosqichma-bosqich hamda har bir bosqichga aniq vaqt belgilanishi bilan o’tkaziladi.

- **1-bosqich.** *Har qatnashchi 2 daqiqa mustaqil ishlaydi .*
- **2-bosqich.** Juftliklarda ishslash-uchliklarda ishslash-5 daqiqa.
- **3-bosqich.** To’rtliklarda ishslash-oltiliklarda ishslash-5daqiqa.
- **4-bosqich.** Sakkizliklarda ishslash 5-daqiqa.
- **5-bosqich.** 5-daqiqa muhokama.

Guruhlardagi ish tugashiga ko’ra har bir guruh vakillari navbatli bilan o’z plakatlarini hona xattaxtasiga ilib qo’yadilar va uni o’qiydilar. Agar savollar bo’lsa guruh javob beradi. O’qituvchi barcha guruhlar ishtirokidagi ummumiylikni topishga yordam beradi.

Ikkinci bob bo'yicha xulosalar.

Tarixan metodlar grammatik tarjima metodi, bevosita metod, bilvosita metod, audiolingual, audiovizual, kommunikativ didaktika, madaniyatlararo aloqa va jarayon metodlariga bo'linadi. Yuqorida sanab o'tilgan metodlarning o'ziga xos prinsiplari ,nazariy asoschilari darsliklari, mashqlar tizimi, xullas har bir tarixiy metodning oziga xos kategoriyalari mavjud ushbu kategaoriyalar bilan bu metodlar bir-biridan farq qiladi. Chet til o'qitishning bir necha asrlik tarixidagi barcha metodlar ushbu metodlarga to'plangan . Ularning har birini qisqacha tahlil qilish talab etiladi, chunki bugungi metodikada ularning ayrim xususiyatlari muayyan shaklda qo'llanilmoqda.

Chet til o'qitish jarayonida amaliy foydalaniladigan metodlar uchta: tanishish, mashq qilish va qo'llash. Ushbu uch termin metodik tadqiqotlarda turli nomlar bilan yuritib kelindi. Ko'pchilik tan olgan va o'qitishda bevosita mushohada qilish mumkin bo'lgan mazkur metodlar o'quvchi nuqtai nazaridan nomlangan. O'quvchining chet til o'rganishdagi vazifasi o'quv materiali (ya'ni til materiali bilan tanishish, ko'nikma va malaka hosil qilish maqsadida mashq qilish hamda o'z fikrini bayon etish chog'ida, ya'ni nutqiy muloqotda tildan foydalanishdan iborat.

O'qitishning interfaol usullari

1. *Kognitiv* (cognito-lotincha so'z bo'lib <<bilim>>, <<bilish>> ma'nosini anglatadi)- eng avvalo, talaba (yoki o'quvchi) larning tafakkurini shakllantirishga yo'naltirilgan, u yoki bu shaklda jamoa muhokamasini tashkil etish bilan bog'liq bo'lgan usuldir .

2. *Eksperimental* talaba (yoki o'quvchi)larning <<jonli>>, shahsiy tajriba orttirishlariga yo'naltirilgan

3. *Rolli o'yinlar, Modellashtirish* hayotiy vaziyatlarni modellashtirish hamda ma'lum rollarni ijro etish orqali ularni sinab ko'rishga yo'naltirilgan (usul jamoa tafakkuri, muhokama bilan bog'liq, ammo muhokama rolli o'yin tahlili asosida olib boriladi

4. *Fasilitasiya* (inglizcha facilitate - osonlashtirish) –guruh ishini tashkil etish, ko'pincha aniq, haqiqiy, amaliy topshiriqlar bilan bog'liq aniq qaror qabul qilish bo'yicha muhokama faoliyatning haqiqiy rejasini ishlab chiqish,

III. BOB. NEMIS TILI O'RGATISH JARAYONIDA METODIKANING ASOSIY TUSHUNCHALARINING AMAL QILISHI

III. 1 Nemis tili o'rgatish jarayonida tarixiy metodlaridan foydalanish.

Audiolingval metodning bir darslik misolidagi asosiy xususiyati.

Endi misol tariqasida bir darslikni ko'rib chiqaylik. Bunda quyidagilarga e'tibor qaratiladi:

- darsda o'rganiladigan matn
- grammatik material bayoni
- mashqlar
- dars qurilishi
- mundarija (o'quv materiali taqsimoti)

1. Darsda o'rganiladigan matn.

Darslikda kiritilgan har bir matn uchun quyidagi uch omil muhim hisoblanadi:

1. Materialni qog'ozga tushirish.

Matn qanday bosilgan (sarlavha, borttirishlar, bo'linishlar)? Rasmlar mavjudmi? So'z va matn qanday munosabatga kiritilgan? (bu masalalar ayniqsa, asliy (original) matnlar darslikka kiritilgan bo'lsa, muhim ahamiyatga ega)

2. Materialning xususiyati (til uslubi)

Har bir matn turi alohida til xususiyatiga ega. Masalan, taom tayyorlash retseptida ko'pincha buyruq mayli yoki otlashish shakli qo'llaniladi: Reklamada esa juda "shirin" yildan (solishtirish, metafora, bo'ttirish) va yangi so'z yasash usullaridan foydalaniladi.

3. Matn funksiyasi

Har bir matn ma'lum maqsad uchun tuziladi, masalan, poyezd harakati haqidagi axbootni aks ettirish(qatnov jadvali), maxsulotning foydaliligin ko'rsatish (reklama), axborot berish (gazeta xabari), ma'lum ishni bajarish uchun ko'rsatma berish (foydalanish uchun tavsiya) yoki biron voqeani bayon qilish (hikoya, ertak).

Darslikda ta'limiy funksiyani bajarish uchun mo'ljallangan matnlar mavjud. Ular grammatikaning ma'lum mavzusini yoki til hodisasiga oid ma'lum misolni aks ettirish uchun hizmat qiladi.

Misol tariqasida quyidagi matnni ko'rib chiqamiz.

Der Geburtstag

Frau Hartmann: Wie gefaelt dir Kamera?

Herr Hartmann: Mir? -Gut! Wenn gehoert sie den?

Frau Hertmann: Stefan. -Du weisst doch, er hat heute Geburtstag.

Ich moechte sie ihm schenken.

Herr Hartmann: Ja, Natuerlich. Ich vergesse die Geburtstage immer.

Frau Hartmann: Gibst du ihm die Kamera, wenn du ihm gratulierst?

Das freut ihn bestimmt.- Da kommt er ja.

Herr Hartmann: Stefan, Wie geht es dir?

Stefan: Mir: - Prima! Aber warum fragst du mich?

Herr Hartmann: Du hast doch heute Geburstag. Mutti und ich gratulieren dir
und schenken dir den Fotoapparat. Gegaelt er dir?

Stefan: Ja, Vielen Dank, Mutti! -Vielen Dank, Vati!

Wie funktioniert denn der Apparat?

Herr Hartmann: Moment! Ich zeige es dir, und dann machst du eine Aufnahme

von uns allen.

1. *Matnning qog'ozga tushirilish*: Dastlab katta fotosurat ko'zga tashlanadi. Rasmda oila tasvirlangan, stol bayramona yasatilgan. Barcha nigohlar o'ng tomonda fotokamerani diqqat bilan o'rganayotgan yigitchaga qaratilgan. Surat suhbat vaziyati va mavzusidan dalolat beradi. U shuning uchun tayyorlangan va ta'limi funksiyani bajaradi. Matnga "Tug'ulgan kun" deb sarlavha qo'yilgan. Matnning ko'rinishdan uning "suhbat" ekanligi yaqqol sezilib turadi.
2. *Matnning til xususiyati*: Chiroyli yasatilgan stol atrofida tug'ulgan kuni nishonlanayotgan farzandini kutayotgan ota- ona bilan suhbat qanday o'tadi? Agaro'g'il anchadan beri orzu qilib yurgan fotokamerani sovg'a sifatida olsa, qanday suhbat bo'ladi? Haqiqiyimi? Hayajonlimi? Tayyorlanganmi? Bularning barchasi suhbat vaziyatida rollarni bo'lib olgan kishilarga bog'liq.
3. *Matn funksiyasi*: Dialog "tug'ulgan kun" voqeasini tasvirlaydi. (Kim? Qayerda? Nima sovg'a qilindi? va boshqalar) haqida o'quvchiga axborot beradi. Lekin bu hali hammasi emas. Dialog tug'ulgan kun haqida axborot berishdan tashqari boshqa muhim vazifani ham bajaradi. Bu ALM asosida tayyorlangan darsliklarga xos bo'lgan Lisoniy - ta'limi funkiyadir.

2. Grammatikani tasvirlash.

Darslikda grammatik material bevosita dars paragraflari tarkibida berilmasdan, balki alohida grammatik -ilovada berilgn. Bu holat grammatika dars jarayonida chiqarib tashlanishi ham mumkin, uni dars jarayonida olish shart emas, degan ma'noni anglatadi.

Wem?	
Wie gefaelt die Kamera?	Mir?- Gut!
Wem gehoert sie denn?	Sie gehoert Stefan. Ich schenke sie ihm.
Stefan dankt dem Vater und der Mutter.	Er dankt ihm und ihr.
Er dankt den Eltern.	Er dankt ihnen.

	maskulin	Neutral	feminin	Plural
Nominativ (wer? was?)	der =er	das =es	die =sie	die =sie
Akkusativ (wen? was?)	den = ihn	das =es	die =sie	die =sie
Dativ (wem?)	dem =ihm	dem= ihm	der =ihr	den -ihnen

Akkusativ	Reflexiv	Dativ
Er fragt mich	Ich freue mich	Es gefaellt mir
Er fragt dich	Du freust dich	Es gefaellt dir
Er fragt ihn	Er freut sich	Es gefaellt ihm
Er fragt sie	Sie freut sich	Es gefaellt ihr
Er fragt es	Es freut sich	Es gefaellt ihm
Er fragt uns	Wir freuen uns	Es gefaellt uns
Er fragt euch	Ihr freut euch	Es gefaellt euch
Er fragt sie	Sie freuen sich	Es gefaellt ihnen

Nominativ	Verb	Dativ	Akkusativ
Er	antwortet	dem Vater	-
Die Kamera	gehört	ihm	-
Er	gibt	ihm	die Kamera
Er	gibt	sie	ihm

3. Mashqlar.

Bitte ergänzen Sie:

Er fragt mich	Er hilf mir	Das gehoert mir	Es gibt es dir
..... dichdirdirdir
.....ihn ihm ihm ihm
.....sie ihr ihr ihr
..... uns uns uns uns
.....eucheuch euch euch
..... sieihnenihnenihnen

Bitte antworten sie mit "nein"

Gehoert Ihnen das? Nein, das gehört mir nicht.

Gefaellt ihnen das?

Hilft ihnen das?

Ist ihnen das gleicht?

Dauert ihnen das zu lange?

Bitte ergänzen Sie:

mir-dir- ihm- uns

1. Wie gefaelt.....die Kamera? 2.? Gut! Wem gehoert sie denn? 3. Du weisst doch, Stefan hat heute Gebuerstag. Ich will sie ...schenken. 4. Ja, natuerlich! Ich vergesse die Geburstage immer. 5. Gibst du ...Kamera, wenn du...gratulierst? 6. Stefan, wie geht es....? 7.geht es prima! 8. Nutti und ich gratulieren...und schenken...den Fotoapparat. 9. Vati, erklaerstdu ...bitte den Apparat? 10. Ja,gut ich zeige es..., und du machst eine Aufnahme von..... allen.

Dialoge:

Herzlichen Glueckwunsch!

A: Sie haben ja Geburstag!"B: Woher wissen Sie das?

A: Ich weiss es von ...hezlichen Glueckwunsch!

B: Danke! Das ist sehr aufmerksam von Ihnen.

Was wünschen Sie?

A: Ich möchte einen Fotoapparat.

B: In welcher Preislage?

A: Wieviel kostet denn eine Kamera?

B: Die hier.... DM und die ...DM.

A: Ich nehme die da.

B: Gut, Hier ist ihr Kassenzettel

Kirish	Mashq	Mamlakatshunoslik	Ilova
Rasmlili dialog, situatsiya qismlari va rasmlar qatori, bunga qo'shimcha tarzda grammatik materialni qamra olgan misol gaplardan iborat qisqa matnlar	Gap tuzish, to'ldirish, elementlari tishirib qoldirilgan, shakli o'zgartiriladigan, dialog mashqlar.	Axborotli matni bo'lgan foto (mashqlarsiz va dars mavzuiga bog'liq bo'lgan materialsiz)	Grammatika (dars tartibida) bir tilli va alifbo tartibidagi so'zlar ro'yxati (darslardagi joylashuviga ko'ra)

III. 2. Nemis tili o'rgatish jarayonida jarayon metodlaridan foydalanish.

Chet til o'qitish jarayonida amaliy foydalilaniladigan metodlar uchta: tanishish, mashq qilish va qo'llash. Ushbu uch termin metodik tadqiqotlarda turli nomlar bilan yuritib kelindi. Ko'pchilik tan olgan va o'qitishda bevosita mushohada qilish mumkin bo'lgan mazkur metodlar o'quvchi nuqtai nazaridan nomlangan. O'quvchining chet til o'rganishdagi vazifasi o'quv materiali (ya'ni til materiali bilan tanishish, ko'nikma va malaka hosil qilish maqsadida mashq qilish hamda o'z fikrini bayon etish chog'ida, ya'ni nutqiy muloqotda tildan foydalanishdan iborat.

Suhbat. Gaplashish nutqi suhbatdoshdan gapirish va tinglab tushunish malakalarini talab qiladi. Shuning uchun ham tinglab tushunish malakalarini talab qiladi. Shuning uchun ham gaplashish nutqiga o'rgatish gapirish va tinglab tushunish malakalarini o'stirishni taqozo etadi. Ko'pgina metodikabiyotlarda Savol -javob mashqlarini bajarish gaolashish nutqiga o'rgatishning yagona bo'lmasa ham asosiy yo'li deb qarash kuzatiladi. Bu fikr bir tomonlamadir. Chunki muomala jarayonidan fikr almashish faqat savol- javobdangina iborat bo'lmay, balki murakkab va xilma- xildir :

Masalan:

- | | |
|-----------------|--|
| 1. Salom -alik: | Guten Tag! |
| 2. Iltimos: | Herbert, gib mir bitte dein Buch |
| 3.Taklif: | Bitte, nehmen Sie Platz Danke schon |
| 4. Tashakkur: | Danke, ich bin sehr froh. Nicht zu danken |
| 5. Ma'lumot: | Ich war gestern in de Stadt - Ach, so |
| 6. Ko'rsatma: | Das sind Buecher und Hefte -Sind sie fuer uns? |
| 7. Savol: | Ist dieses Bucg interessant?-Ja, interessant. |
| 8.Ma'qullash: | Ist Peter der beste Schueler? - Ja, Peter ist der beste Schueler in unserer Klasse |

- | | |
|-----------------|---|
| 9. Suhbat : | Ist das moeglich? |
| 10. Ma'qullash: | Das stimmt. Ich habe ihn in de Stadt gesehen |
| Inkor - | Es ist nicht moeglic. Er war gestern mit mir |
| 11. Iltimos: | Ich bitte dich , mir zu helfen. |
| Rozilik: | Aber gern |
| 12. Iltimos: | Komm bitte heute abend zu mir |
| Rad etish: | Weiss du ich bin heute abend sehr beschaeftigt. |

Ich kann zu dir nicht kommen

Yuqoridagi misollar galashish nutqiga xos bo'lgan barcha muomala shakllarni qamrab ololmasa ham muomalaning xususiy xodisasi faqat savol-javob emasligini ko'rsatadi. Shuning uchun ham gaplashish nutqig o'rgatish faqat savol- javobga o'rgatishdangina iborat emas, balki , fikr almashishga o'rgatishdan iborat bo'lish lozim.

beradi.

III. 3. Nemis tili o'rgatish jarayonida strategiya va usullar.

Strategiya -yunoncha-strategia (stratos-qo'shin +ago yetaklayman) - ta'limjarayonini boshqarish, ya'ni yo'lga solib turish: o'qitish~si (umumiyo'nalish- ta'limmaqsadi): o'qitish~ si taktikasi ,texnologiyasi.

Ta'limning interfaol strategiyasi

- Aqliy hujum usuli
- To`g`ridan to`g`ri jamoaviy „Aqliy hujum” usuli
- „Aql bilan ishg`ol qilish” usuli
- Ijodiy masalalarni hal etish texnologiyasi
- „Qora quti” usuli
- „Kundaliklar” usuli
- „6*6*6” usuli
- Kinetik (fil`moteka texnologiyasi)
- Muammoning qo'yilishi. Izlanish maqsadi. Masalalarni hal etish, Analog. To`g`ridan to`g`ri, shaxsiy, ramziy, hayoliy-fantastik izlanishlar
- Tanqidiy taffakur texnologiyalari
- Tanqidiy jarayon tahlili
- Chaqiriq, fikrlash, taffakur yuritish bosqichlari
- Debatlar texnologiyasi

Metodik usul yanada kichik tushuncha bo'lib,"yangi so'zning ma'nosini ochish usullari", "til materialini o'rgatish usullari" singari birikmalar uchraydi.

Hayotiy vaziyatlarda o'yin qilib ko'rish

Hayotiy vaziyatlarni o'yin qilib ko'rish – hayotiy vaziyatlarni o'yin shaklida ko'rsatishdan iboratdir.

O'tkazish tartibi:

1. Talaba (yoki o'quvchi) larni o'yin davomida o'ziga hos rollarni bajarishlariga tayyorlash.
2. Talaba (yoki o'quvchi) larni bu o'yinning maqsadi, qoidalari va vaqt bilan belgilanadigan chegaralari bilan tanishish.
3. O'quv predmeti mavzusi bo'yicha yoki tanlangan muammo bo'yicha simmulyatsiyaviy sharoit yaratish
4. O'yinni o'tkazishga yordam berish
5. Talaba (yoki o'quvchi)lardan bu o'yin ularda qanday taassurot qoldirganligini aniqlash
6. Yana qanday simmulyatsiyaviy sharoitlar bo'lishi haqida fikrlashish
7. Mashg'ulotni yakunlash

Uchinchi bob bo'yicha xulosalar

Tarixan metodlar grammatik tarjima metodi, bevosita metod, bilvosita metod, audiolingual, audiovizual, kommunikativ didaktika, madaniyatlararo aloqa va jarayon metodlariga bo'linadi. Yuqorida sanab o'tilgan metodlarning o'ziga xos prinsiplari ,nazariy asoschilari darsliklari, mashqlar tizimi, xullas har bir tarixiy metodning oziga xos kategriyalari mavjud ushbu kategaoriyalar bilan bu metodlar bir-biridan farq qiladi. Chet til o'qitishning bir necha asrlik tarixidagi barcha metodlar ushbu metodlarga to'plangan . Ularning har birini qisqacha tahlil qilish talab etiladi, chunki bugungi metodikada ularning ayrim xususiyatlari muayyan shaklda qo'llanilmoqda.

Nemis tili darslarida o`yin texnologiyalaridan foydalanish o`quvchilarning darsga bo`lgan qiziqishi va faolligini oshiradi, darsning samarali bo`lishiga ijobiy ta`sir qiladi. Darsda ta`limiy o`yinlarda foydalanish o`quvchilarning til materialini chuqr o`zlashtirib olishlariga va dars jarayonida erkin psixologik vaziyatni yaratish imkonini beradi. Oyinlardan misol keltirishdan avval nemis tilidagi metodik adabiyotlarda o`yin va o`yin turlariga oid materiallar bilan tanishib chiqishni o`rinli deb hisoblaymiz.

Umumiy xulosalar

Chet til o'qitish metodikasining kategoriyalari deganda shu fanga oid asosiy tushunchalar nazarda tutiladi.

Ularni ilmiy jihatdan asoslash tahlil qilish mohiyatini tushunish chet til o'qitish metodikasi fanining nazariy asoslarini belgilab beradi. Chet til o'qitish metodikasining asosiy tushunchalariga metod, metodika, metodologiya, usul, prinsip, ta'lif maqsadi, mazmuni , vositasi va boshqalar kiradi.

Ishda ushbu tushunchalar psixologiya, metodika, pedagogika, tilshunoslikka oid adabiyotlardagi ma'lumotlarga asoslanib yoritib berildi.

Metod termini "ta'lif usullari yig'indisi" va "ta'lifning yo'nalishi" ma'nolarida qo'llanadi. Birinchi ta'lif nazariyasida ishlatilsa (mas. og'zaki nutq o'rgatish metodlari, talaffuz o'rgatish metodlari), ikkinchi ma'noda uni o'qitish metodikasi tarixiga oid asoslarda uchratamiz. Mas. chet til o'qitishning tarjima metodi, to'g'ri metod, ongli qiyosiy metod, audiovizual metod va h.k.

Metodika ilmini rivojlantirish va uni yuksak pog'onalarga ko'tarishda L.V sherbaning shogirtlari va izdoshlari (I.V. Raxmanov, V.S. Setlin, A.A.Mirolyubov,o'zbek olimlari va boshqalar) ning hissasi ulkandir.

Prof. Yefim Izrailevich Passov fikricha, metod o'quv jarayonida qo'yilgan maqsad sari yo'naltirilgan va nutq faoliyati turlari bilan bog'liq prinsiplar sitemasidir. Demak, prinsiplar metodni shakllantiradi. Bu yerda keng ma'nodagi metodik yo'nalish haqida so'z boryapti. (Passov, 1991)

Prof. Y.I.Passov ta'biricha "prinsip-o'qitish jarayoni atalmish binoning poydevoridir". Tabiatda prinsiplar yo'qligi, faqat qonunlar borligi haqida bilish nazariyasida ma'lumotlar keltiriladi. Prinsip "asos bo'ladigan yo'l- yo'riq, qonun- qoida" ma'nosida ishlatiladi. Ta'lifshunoslikda xilma-xil prinsiplar tizmasi bayon etiladi.

Prinsip tushunchasi bevosita o'quv jarayonini aks ettiruvchi metodik hodisani ifodalaydi, metod esa prinsiplar yig'indisining mavhumlashgan umumlashmasidir.

Mas. og'zaki nutqning ilgarilashi prinsipi, til tajribasini hisobga olish prinsipi kabilar. Prinsip uch guruhni tashkil etadi: pisixologik, didaktik va sof metodik prinsiplar.

Metodik usul yanada kichik tushuncha bo'lib, "yangi so'zning ma'nosini ochish usullari", "til materialini o'rgatish usullari" singari birikmalar uchraydi.

Strategiya -yunoncha-strategia (stratos-qo'shin +ago yetaklayman) - ta'limjarayonini boshqarish, ya'ni yo'lga solib turish: o'qitish~si (umumiyo'nalish- ta'limmaqsadi): o'qitish~ si taktikasi ,texnologiyasi.

Texnologiya- (yunon-techne mahorat, ustalik +logos ta'limot) -muayyan jarayonni yurgizish usullarihamda vositalari: chet til o'qitish~ si, o'qitish~si/strategiyasi/taktikasi.

Metodikaning kategoriyalarini ilmiy jihatdan bilish va ulardan ta'lim jarayonida to'g'ri foydalan olish ta'lim samaradorligini oshirish uchun xizmat qiladi

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. “Barkamol avlod –O’zbekiston taraqqiyotining poydevori ” Toshkent, “Sharq nashriyoti” 1998 y.
2. Karimov I.A. “Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch ” Toshkent “Ma’naviyat” 2008 y
3. Karimov I.A. “O’zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida” Toshkent “O’zbekiston” 2012 y.
4. Innovatsiya o’quv jarayonida ilmiy-uslubiy maqolalar to’plami. Toshkent 2010y.
5. Jalolov J. “chet tilini o’qitish metodikasi” Toshkent, “O’qituvchi nashriyoti” 1996 y.
6. Tomson A.L. «об изучении иностранных языков в средне-учебных заведениях» Педагогических сборник. 1891 г.
7. Mirolyubov A.A. Rahmonov M.V. Setlin V.S. “O’rta maktablarda chet tili o’qitishning umumiy metodikasi” Toshkent “O’qituvchi”
8. Rahmatova D. “Istiqlol va til” ilmiy-amaliy anjuman materiallari Toshkent 2007 3-qism 209-211 betlar
9. G’afforova T. “Qarshi davlat universiteti axborotnomasi” 2-sod 2009 y.
10. Saidahmedov N. “Yangi pedagogik texnologiyalar” 1-sod “xalq ta’lim” jurnali 1999 y.
11. Farbermann B.X. “Ilg’or pedagogik texnologiyalar ” Toshkent, o’z. R. F.A. 2000 y.
12. Gafforova T. va boshqalar. “Ta’limning ilg’or texnologiyalari” Qarshi, Nasaf 2003.
13. Eshmuhamedov R.J. “Innovatsion texnologiya yordamida ta’lim samaradorligini oshirish yo’llari” Toshkent 2004 y.

14. Yo`ldoshev J. “Yangi dedagogik texnologiyalar yo`nalishlari muammolari” xalq ta`limi 1999 y.
15. Azizzxo`jayeva N.N. “Dedagogik texnologiyalar va dedagogik mahorat“ Toshkent 2003
16. Abdinazarov Sh. “Ta`lim-tarbiyaning aktual masalalari” Qarshi 1991 y.
17. Tassov E.U. «Основы методики обучение иностранным языкам». Москва 1997 г.
18. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chiqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontsepsiysi // Xalq so`zi, 2010 yil 13 noyabr.
19. Karimov I.A. Barcha va reja dasturlarimiz Vatanimiz tarqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz faravonligini oshirishga xizmat qiladi. Prezident I.A.Karimovning 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo`ljallangan eng muhim ustuvor yo`nalishlariga bag`ishlangan O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma`ruzasi // Ma`rifat, 2011 yil 22 – yanvar.
20. “Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti” mavzuidagi konferensiya materiallari // Ma`rifat, 2012 yil 22 fevral.
Karimov I.A. O`zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. –Toshkent, “O`zbekiston”, 2011 y. –B.90.
21. Г. В. Рогова. Методика обучения английскому языку Учебно-пособие ГЛЖ Просвещение. 1975.
22. Г.В. Рогова Ф.М.Рабинович, Т.Е. Сахарова Методика обучения иностранным языкам в средней школе. М. Просвещение. 1991.